



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi
ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga rahbar, mahalliy
hamda xorijiy pedagog kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilishga oid
me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida” 2022-yil 14-apreldagi PF–106-son, “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF–79-son Farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, ta’lim jarayoniga malakali rahbar va pedagog kadrlarni saralab olish, iqtidorli yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash tizimini takomillashtirish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat uchun malakali pedagog kadrlarni tanlash, baholash va ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat uchun xorijiy mutaxassislarni tanlash, baholash va ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi tayanch maktablar va ularning filiallari, hududiy hamda muhandislik yo‘nalishlaridagi ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar uchun malakali rahbar kadrlarni tanlash, baholash va ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida nizom 3-ilovaga muvofiq;

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi tayanch maktablar va ularning filiallari, hududiy hamda muhandislik yo‘nalishlaridagi ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar uchun malakali pedagog kadrlarni tanlash, baholash va tavsiya etish tartibi to‘g‘risida nizom 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (S.Shakirova)ga:

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) tizimidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat, tayanch maktablar va ularning filiallari, hududiy ixtisoslashtirilgan maktab

va maktab-internatlar hamda muhandislik maktablari (keyingi o‘rinlarda – ixtisoslashtirilgan maktablar)ga rahbar va pedagog kadrlar tanlovi jarayonlarini adolatlilik, xolislik, oshkoralik va kollegiallik tamoyillari asosida amalga oshirish;

mavjud bo‘sh ish o‘rinlariga talabgorlarning hujjatlarini onlayn shaklda ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quvchilar soni va o‘quv rejalariga muvofiq rahbar va pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlab borish, yuzaga kelgan ehtiyojni mazkur buyruqning 1-, 2-, 3- va 4-ilovalaridagi nizom talablariga muvofiq o‘z vaqtida qoplash;

o‘n kun muddatda ishchi guruh va tanlov komissiyalari tarkibini tasdiqlash vazifalari yuklatilsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari:

pedagog kadrlar tanlovida ishtirok etish uchun fanini chuqur biladigan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo‘llay oladigan, innovatsion va kreativ yondashuvga ega malakali o‘qituvchilarni keng jalb etsin;

rahbar kadrlar tanlovida ishtirok etish uchun boshqaruvchilik salohiyatiga ega, strategik fikrlaydigan, liderlik va tashabbuskorlik qobiliyatlari rivojlangan, kamida bitta xorijiy tilda erkin muloqot qila oladigan nomzodlarni tavsiya etsin;

tanlov jarayonlarida nomzodlarning kasbiy mahorati, ma’naviy-axloqiy fazilatlarini hamda zamonaviy ta’lim jarayonlarini tashkil etish kompetensiyalariga alohida e’tibor qaratsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 15-iyundagi “Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablarga rahbar va pedagog kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilishga oid me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 163-sonli, 2024-yil 25-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 15-iyundagi 163-sonli buyrug‘iga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 225-sonli buyruqlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Devonxona bo‘limi (S.Xashimov) ushbu buyruqni bir kun muddatda vazirlikning tegishli tarkibiy bo‘linmalari hamda Agentlikka yetkazilishini ta’minlasin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari Sh.Karimov hamda Agentlik direktori S.Shakirova zimmasiga yuklansin.

Vazir



E. Karimova

Toshkent sh.,
2026-yil “8”-iyul,
245-son

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Xorijiy tillarga
ixtisoslashtirilgan maktab-internat uchun malakali pedagog kadrlarni
tanlash, baholash va ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) tizimidagi Xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati (keyingi o'rinlarda – maktab-internat)ning pedagog kadrlar lavozimlariga nomzodlarni tanlov asosida saralash, baholash, tavsiya etish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

tanlov – maktab-internatdagi bo'sh (vakant) bo'lgan pedagog lavozimlarini egallash istagini bildirgan shaxslar orasidan munosibini tanlab olish maqsadida to'rt bosqichda tashkil etiladigan jarayon;

nomzod – maktab-internatdagi bo'sh (vakant) bo'lgan pedagog lavozimini egallash uchun tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxs;

malaka talablari – nomzodlarga nisbatan Agentlik tomonidan belgilanadigan, ma'lumotiga, ish tajribasiga va kasbiy kompetensiyasiga doir talablar;

ishchi guruh – tanlov bosqichlarini tashkil etish va o'tkazishni ta'minlash maqsadida tanlov komissiyasi tomonidan tuziladigan ishchi organ.

apellyatsiya komissiyasi – nomzodlarning tanlov natijalari ustidan qilgan shikoyatlarini ko'rib chiqishni ta'minlash maqsadida Agentlik direktorining buyrug'iga asosan tuziladigan kamida uch nafar a'zodan iborat tarkib.

3. Tanlovning maqsadi maktab-internatda ta'lim sifatini yanada yuksaltirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni samarali qo'llay oladigan, yuqori darajadagi kasbiy bilim va pedagogik mahoratga ega, ijodiy va ilmiy salohiyati rivojlangan, yuksak axloqiy hamda ma'naviy fazilatlarni o'zida mujassam etgan malakali pedagog kadrlarni ochiq va xolisona tarzda saralab olishdan iborat.

Pedagog kadrlar faoliyatini tashkil etishda Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning quyidagi asosiy talablari inobatga olinadi:

xalqaro ta'lim standartlari va dasturlarini bilishi;

STEM-yondashuvlar va zamonaviy o'qitish metodikalarini qo'llay olishi;

o'quvchilarning tanqidiy, analitik va tadqiqotchilik tafakkurini rivojlantira olish qobiliyati;

loyiha asosida va fanlararo o'qitishni qo'llay olishi;

akademik halollik va tadqiqot madaniyatini ta'minlay olishi;

xorijiy tillar va raqamli ta'lim texnologiyalarni bilishi;

iqtidorli va yuqori motivatsiyaga ega o‘quvchilar bilan ishlay olish qobiliyati; individual ta’lim trayektoriyalarini bilishi va qo‘llay olishi;

xalqaro ta’lim loyihalari va professional hamjamiyatlarda ishtirok etganligi.

4. Tanlov jarayoni adolatlilik, xolislik, oshkoralik hamda kollegiallik tamoyillariga qat’iy amal qilingan holda amalga oshiriladi. Bunda barcha nomzodlar uchun teng shart-sharoitlar yaratiladi, baholash mezonlari ochiq va aniq belgilanadi hamda qarorlar kollegial tartibda qabul qilinadi.

2-bob. Tanlovni tashkil etish tartibi

5. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazishni ta’minlash maqsadida Agentlik direktorining buyrug‘i bilan kamida besh nafar toq sonli a’zoldan iborat tarkibda tanlov komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – tanlov komissiyasi) tuziladi.

Agentlik direktori o‘rinbosari tanlov komissiyasi raisi, Ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar bilan ishlash bo‘limi xodimi tanlov komissiyasi kotibi hisoblanadi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga tegishliligi bo‘yicha Agentlik tizimidagi maktablardan mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

6. Tanlov komissiyasi uning a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Tanlov komissiyasining qarori oddiy ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va majlisda ishtirok etgan barcha a’zolar tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Berilgan ovozlar soni teng bo‘lib qolgan taqdirda, tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

7. Maktab-internatda pedagog kadrlar lavozimlari bo‘yicha bo‘sh (vakant) o‘rin mavjud bo‘lganda **yigirma ish kuni** ichida maktabning manzili va murojaat etish uchun telefon raqamlar ko‘rsatilgan holda tanlov o‘tkazish to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida yoki Agentlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari yoxud maktab-internatning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e‘lon beriladi.

8. Maktab-internat pedagog lavozimlaridagi bo‘sh o‘rinlarni yuqori salohiyatli, ilmiy va amaliy bilimga ega pedagog kadrlar bilan to‘ldirishi uchun tanlovda ishtirok etuvchi nomzodlar umumta’lim va ixtisoslik fanlari bo‘yicha oliy pedagogik ma’lumot, kamida ikkinchi malaka toifa va uch yil pedagogik ish stajiga (ingliz tili o‘qituvchilari uchun pedagogning ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi CEFR (B2) yoki undan yuqori darajadagi milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikatga) ega bo‘lgan shaxslar doirasidan shakllantiriladi.

Agar nomzod pedagogik mutaxassislik bo‘yicha ilmiy daraja (fan doktori (Doctor of Science – DSc), falsafa doktori (Doctor of Philosophy – PhD) yoki ilmiy unvon (dotsent, professor, akademik)ga yoki magistr darajasiga, shuningdek mutaxassislik fani bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi qo‘shma qarori bilan tan olingan (keyingi o‘rinlarda – tan olingan) milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo‘lsa, ustuvorlik beriladi.

9. E‘londa quyidagilar ko‘rsatiladi:

vakant lavozimlar to'g'risida axborot;
tanlov o'tkazilayotgan fan o'qituvchisi lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari;

tanlovda ishtirok etish uchun nomzod tomonidan taqdim etiladigan (portfoliyo) hujjatlar (shaxsini tasdiqlovchi hujjat, ma'lumotnoma (obyektivka, SV), diplom(lar), sertifikat(lar), foto va sudlanmaganlik to'g'risida ma'lumotnoma) ro'yxati va ularni qabul qilish muddatlari;

aloqa uchun telefon raqami;

hujjatlarni elektron shaklda topshirish imkonini beruvchi platforma havolasi.

10. Bitta fan bo'yicha bo'sh turgan birdan ortiq o'qituvchi lavozimi uchun tanlovlar birlashtirilgan holda o'tkazilishi bo'yicha tanlov komissiyasi tomonidan reja-grafik tasdiqlanishi mumkin.

Reja-grafikda tanlovlarni o'tkazish va natijalarini e'lon qilish muddatlari belgilanadi.

11. Nomzod tanlovda ishtirok etish uchun arizasini e'londa so'ralgan hujjatlarni ilova qilgan holda Agentlikning **vacancy.piima.uz** elektron platformasi orqali onlayn taqdim etadi.

Arizalarni topshirish muddati tanlov haqida e'lon qilingan kundan e'tiboran **o'n besh ish kunni** tashkil etadi. Belgilangan muddatdan so'ng kelib tushgan arizalar tanlovda ishtirok etish uchun qabul qilinmaydi.

12. Bir nafar bo'sh turgan o'qituvchi lavozimi uchun tanlovda ishtirok etish maqsadida hujjat topshirgan nomzodlar soni bir nafardan oshmasa, tegishli fan yo'nalishi bo'yicha tanlov o'tkazilmaydi va Agentlik tomonidan tanlov o'tkazish to'g'risida takroran e'lon beriladi.

13. Nomzodga qo'yiladigan umumiy talablar:

zamonaviy ta'lim metodikalarini bilishi;

bolalar bilan ishlay olishi;

bolaning emotsional, bilish va ijtimoiy sohalarini rivojlantira olish qobiliyati;

ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish ko'nikmalariga ega ekanligi;

xavfsiz va rivojlantiruvchi muhit yaratish qobiliyatining mavjudligi;

ixtisoslashtirilgan treninglarda ishtirok etganligi.

3-bob. Tanlov bosqichlari va o'tkazish tartibi

14. Tanlov to'rt bosqichda o'tkaziladi:

birinchi bosqich – saralash bosqichi (tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirish, malaka talablariga muvofiqligini tahlil qilish);

ikkinchi bosqich – test sinovi bosqichi (tegishli fan bo'yicha bilish darajasi, pedagogik texnologiyalar va raqamli savodxonlik ko'nikmalarini baholash);

uchinchi bosqich – amaliy (sinov darsini o'tish) bosqich;

to'rtinchi bosqich – suhbat bosqichi.

Tanlov komissiyasi tomonidan 2-, 3-, 4 - bosqichlar ketma-ketligi o'zgartirilishi mumkin.

15. Quyidagi holatlarda nomzod birinchi saralash bosqichidan o'tmagan deb hisoblanadi va tanlovning keyingi bosqichlariga qo'yilmaydi:

nomzod tomonidan taqdim etilgan hujjatlar to'liq bo'lmaganda;

nomzod belgilangan malaka talablariga muvofiq kelmaganda;

nomzod tomonidan qalbaki hujjatlar yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, yolg'on va chalg'ituvchi ma'lumotlar taqdim etilganligi aniqlanganda;

sud hukmiga ko'ra pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi man etilgan yoki muomalaga layoqatsiz (*muomala layoqati cheklangan*) deb topilganlar;

tibbiyot muassasalarida muayyan toifadagi kasalliklar bo'yicha ro'yxatda turgan shaxslar.

Agar ushbu holatlar saralash bosqichida aniqlanmasdan nomzod keyingi bosqichga o'tkazilgandan so'ng aniqlangan holda nomzod tanlov komissiyasi tomonidan keyingi bosqichda ishtirok etishdan chetlashtiriladi.

16. Tanlovning saralash bosqichidan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar ikkinchi (test) bosqichda ishtirok etadi. Test bosqichida nomzodlarning o'quv fani bo'yicha bilim va ko'nikmalari, ularning mantiqiy fikrlash darajasi aniqlanadi.

17. Test savollari majmui Agentlik huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan ishlab chiqiladi.

18. Test sinovlari internet jahon axborot tarmog'iga ulangan kompyuterlar bilan ta'minlangan maxsus o'quv auditoriyalarida o'tkaziladi. Test savollari va ularning javoblari Agentlik serverlarida saqlanadi.

19. Test savollari ko'p variantlilik asosida 40 ta savoldan iborat bo'ladi.

20. Nomzodlarga test savollariga javob berish uchun aniq va tabiiy fanlar uchun 90 daqiqa, filologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun 60 daqiqa vaqt beriladi.

21. Ikkinchi bosqichda har bir to'g'ri bajarilgan test savoli uchun 2,5 ball, jami 100 ball beriladi.

22. Quyidagi holatlar nomzodlarning test jarayonidan chetlashtirilishiga asos bo'ladi:

Test jarayonida qonunchilik hujjatlaridan, ma'lumot beruvchi va maxsus adabiyotlardan, har qanday turdagi texnika vositalaridan yoki boshqa materiallardan (ma'lumotlardan) foydalanish;

test jarayonida boshqa shaxslar bilan suhbatlashish;

test jarayoni yakunlanib, ekranda test javobi aks etgunga qadar test savollari o'tkazilayotgan xonadan ruxsatsiz tashqariga chiqish.

Yuqoridagi holatlarda ushbu nizomning 1-ilovasiga muvofiq dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

23. Test natijalariga ko'ra nomzodlar umumta'lim fanlaridan kamida 60 ball, ixtisoslik fanlaridan kamida 70 ball va undan yuqori to'plagan nomzodlar orasidan ballar ketma-ketligi bo'yicha eng yuqori 3 nafargacha nomzod uchinchi bosqichga o'tkaziladi. Ushbu nomzodlar tanlovning to'rtinchi bosqichida ham ishtirok etadi.

Test natijasiga ko'ra uchinchi bosqichga o'tkazilgan nomzodlar o'z xohishi bilan mazkur bosqichda ishtirok etishni rad etgan hollarda ikkinchi bosqich natijalariga ko'ra ballar ketma-ketligi bo'yicha navbatdagi nomzod ushbu bosqichda ishtirok etishga imkon beriladi.

Nomzodlarning uchinchi va to'rtinchi bosqichdagi ishtiroklarini baholash uchun Agentlik buyrug'i bilan maxsus ishchi guruh tarkibi tasdiqlanadi. Zaruratga ko'ra tizim tashkilotlaridan tajribali fan o'qituvchilari ishchi guruh tarkibiga jalb etilishi mumkin.

24. Tanlovning uchinchi (sinov darsini o'tish) bosqichida ishtirok etuvchi nomzodlar Agentlik tomonidan belgilangan maktabning bir sinf xonasida o'quvchilarga dars o'tib beradi. Bunda pedagoglarning dars o'tish mahorati, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay olishi, jamoa bilan ishlash ko'nikmasi hamda o'quvchilar bilan o'zaro munosabati baholanadi.

25. Tanlovning uchinchi (sinov darsini o'tish) bosqichida nomzod tomonidan o'tilgan sinov darsi mazkur nizomning 2-ilovasida keltirilgan baholash mezonlariga muvofiq baholanadi.

Ishchi guruhning har bir a'zosi alohida baholash varaqasini to'ldiradi va barcha baholovchilar tomonidan qo'yilgan ballar umumlashtirilib, ular yig'indisining o'rtacha qiymati yakuniy baho sifatida qayd etiladi hamda komissiyaga taqdim etiladi. Ishchi guruhning bir a'zosi tomonidan qo'yilgan ballarni boshqa a'zolariga ko'rsatish taqiqlanadi va ballarni o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

26. Tanlovning so'nggi to'rtinchi (suhbat) bosqichida nomzodlarning kasbiy bilimlari, pedagogik mahorati, muloqot madaniyati, psixologik tayyorgarligi hamda lavozimga mos kompetensiyalari baholanadi.

27. Tanlov jarayonining shaffofligi, xolisligi hamda baholash natijalarining asoslanganligini ta'minlash maqsadida suhbat jarayonlari video tasvirga olinadi va belgilangan tartibda 3 oygacha saqlanadi.

28. Suhbat bosqichida foydalaniladigan savollar biletlari Agentlik tomonidan oldindan ishlab chiqiladi hamda har bir bilet to'rtta savoldan iborat bo'ladi. Savollar biletlari boshqalarga oshkor qilinmasligi qat'iy ta'minlangan holda, belgilangan tartibda va faqat vakolatli shaxslar doirasida ishchi guruhlariga yetkaziladi.

29. Nomzodlar suhbat o'tkaziladigan auditoriyaga kiritilgan vaqtda savollar biletlari orasidan birini tanlab oladi. Nomzodlarga savollarga tayyorlanishi uchun 10 daqiqa, javob berishlari uchun 7 daqiqa vaqt beriladi.

Nomzodlar bilet savollariga javob berib bo'lgach, tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan ularga baholash mezonlari doirasida qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

30. Tanlovning to'rtinchi (suhbat) bosqichi mazkur nizomning 3-ilovasida keltirilgan mezonlarga muvofiq 100 ballgacha baholanadi. Ishchi guruhning har bir a'zosi alohida baholash varaqasini to'ldiradi, qo'yilgan ballarni ishchi guruhning boshqa a'zolariga ko'rsatish taqiqlanadi va ballarni o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

31. Suhbat yakunlari bo'yicha ishchi guruh tomonidan nomzodga qo'yilgan ballar umumlashtiriladi va o'rtachasi chiqariladi, javoblar varaqasiga qayd qilinadi hamda komissiyaga taqdim etiladi.

32. Tanlovning ikkinchi (test) bosqichi natijalari uchinchi (ochiq yoki sinov dars o'tish) va to'rtinchi (suhbat) bosqichlarda nomzodlarni baholashda inobatga olinmaydi.

Biroq, istisno tariqasida nomzodlarning amaliy bosqich (ochiq yoki sinov dars o'tish) va suhbat bosqichi bo'yicha yakuniy ballari teng bo'lib qolgan hollarda, ustunlik tanlovning ikkinchi (test) bosqichi natijalariga ko'ra yuqoriroq ball to'plagan nomzodga beriladi.

33. O'quv yili davomida (sentabr-may) pedagog lavozimlari bo'yicha bo'sh ish o'rinlari yuzaga kelgan hollarda quyidagi toifadagi nomzodlar tanlovning birinchi, ikkinchi, uchinchi bosqichlaridan ozod etilgan holda to'g'ridan-to'g'ri to'rtinchi (suhbat) bosqichida ishtirok etish uchun tavsiya etiladi:

xalqaro reytinglarda TOP-100 talikdan joy olgan xorijiy oliy ta'lim muassasalarining tegishli pedagogika yo'nalishlarini tamomlagan mutaxassislar;

“El-yurt umidi” jamg'armasi hisobidan xorijiy davlatlarda ta'lim olib, kasbiy bilim va amaliy tajriba orttirgan tegishli fan yo'nalishidagi pedagog mutaxassislar;

“Yil o'qituvchisi” tanlovining uchinchi bosqich g'oliblari (Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-apreldagi 264-son qarori asosida), Fan olimpiadalari markazi tomonidan pedagoglar o'rtasida o'tkazilgan fan olimpiadalari g'oliblari;

eng so'nggi attestatsiya natijalariga ko'ra tegishli ixtisoslik fanidan 70 (yetmish) foiz, umumta'lim fanlaridan 60 (oltmish) foiz va undan yuqori natija ko'rsatgan pedagoglar;

zarur hollarda Agentlik tanlov komissiyasi ko'rsatmasiga ko'ra tegishli fan yoki mutaxassislik bo'yicha ehtiyoj yuqori bo'lgan hududlarda tan olingan xalqaro va milliy sertifikatlarga ega bo'lgan pedagog kadrlar.

34. Tanlov yakunlari bo'yicha bayonnoma rasmiylashtiriladi, tanlov komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi hamda kotibi tomonidan imzolanadi.

Bayonnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

1-ilova – tanlov natijalariga ko'ra lavozimga tavsiya etilgan va zaxiraga olingan nomzodlar ro'yxati;

2-ilova – tanlov natijalariga ko'ra lavozimga tavsiya etilmagan nomzodlar ro'yxati.

35. Tanlovning biror bosqichida qatnashmagan, tanlov natijasidan qanoatlanmagan nomzodlar uchun qo'shimcha yoki qayta tanlov o'tkazilmaydi.

36. Tanlov natijalari haqida nomzodlarga jarayonlar yakunlangandan keyin besh ish kuni ichida xabar beriladi.

5-bob. Apellyatsiya komissiyasi

37. Apellyatsiya komissiyasi tarkibi kamida uch nafar toq sondagi mutaxassislardan iborat tarkibda Agentlik tomonidan tuziladi.

38. Apellyatsiya komissiyasi a'zolari tomonidan o'zaro kelishgan holda bir nafari Apellyatsiya komissiyasi raisi etib tayinlanadi.

39. Nomzodlar tanlov natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda, natijalar haqida xabar berilgan kundan e'tiboran uch ish kunida apellyatsiya komissiyasiga shikoyat qilishi mumkin.

40. Apellyatsiya komissiyasi nomzodning murojaatini 10 ish kunida ko'rib chiqadi va arizani qanoatlantirish yoki rad qilish to'g'risida nomzodga xulosa beradi.

41. Apellyatsiya komissiyasining norozilik arizasini qanoatlantirish to'g'risidagi xulosasi nomzodga uning arizasi yuzasidan tanlov natijalariga ball qo'shib berilishiga asos bo'ladi.

42. Apellyatsiya komissiyasi faqat norozilik arizasi bilan murojaat qilgan nomzodning o'z ishini qayta ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lib, unga boshqa nomzodlarning ishlarini murojaatchining ishi bilan solishtirishga ruxsat berilmaydi.

43. Apellyatsiya komissiyasining javobidan qoniqmagan nomzodlar (norozilik arizasi bilan murojaat qilganlar) belgilangan tartibda yuqori turuvchi organlarga murojaat etish huquqiga ega.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

44. Tanlov natijasiga ko'ra g'olib deb topilgan nomzod bilan qonunchilik hujjatlariga asosan mehnat shartnomasi tuziladi va buyruq asosida ishga qabul qilinadi.

Agar g'olib deb topilgan nomzod maktab-internat bilan mehnat shartnomasi tuzishni rad etsa, ballar ketma-ketligi bo'yicha g'olib nomzoddan keyingi o'rinda turgan nomzod (zaxira) bilan mehnat shartnomasi tuziladi.

Qolgan hollarda lavozim qayta tanlovga chiqariladi.

45. Mazkur nizomda nazarda tutilmagan holatlar amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari
agentligi tizimidagi Xorijiy tillarga
ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga
malakali pedagog kadrlarni tanlash, baholash
va ishga tavsiya etish tartibi to'g'risidagi
nizomga 1-ilova

**NOMZODNI TEST JARAYONIDAN CHETLASHTIRISH TO'G'RISIDA
DALOLATNOMA**
_____ -son

“_____” _____ 20__ yil _____ (joy nomi)

Biz, quyida imzo chekuvchilar:

1. _____ (F.I.Sh., lavozimi)
2. _____ (F.I.Sh., lavozimi)
3. _____ (F.I.Sh., lavozimi)

ushbu dalolatnomani quyidagi mazmunda tuzdik:

“_____” _____ 20__ yil kuni o'tkazilgan test sinovi jarayonida fuqaro
_____ (nomzodning F.I.Sh.)

tomonidan quyidagi qoidabuzarlik sodir etildi:

(qoidabuzarlik mazmuni batafsil yoziladi, masalan: telefon ishlatish, boshqa shaxs yordamidan
foydalanish va h.k.)

Yuqoridagilarga asosan, ushbu nomzod test sinovi jarayonidan chetlashtirildi.

Dalolatnoma mazmuni nomzodga o'qib eshittirildi va tushuntirildi.

Nomzodning izohi (agar mavjud bo'lsa):

Imzolar:

Komissiya a'zolari:

1. _____ / _____ /
2. _____ / _____ /
3. _____ / _____ /
4. Nomzod: _____ / _____ / (Sana) _____

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari
agentligi tizimidagi Xorijiy tillarga
ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga
malakali pedagog kadrlarni tanlash,
baholash va ishga tavsiya etish tartibi
to'g'risidagi
nizomga 2-ilova

Tanlovning uchinchi (ochiq yoki sinov dars o'tish) bosqichini baholash MEZONLARI

Dars mavzusi:

Sana: _____ - _____ 20__ y.

Sinf: _____

Nomzod(F.I.Sh)_____

Dars bosqichlari	Pedagogik va didaktik talablarni amalga oshirish bo'yicha nomzod faoliyati	Ball
1.Dars boshlanishidan oldin (tayyorgarlikning tashqi belgilari)	1.1. Darsga tayyorgarlik (tashqi ko'rinish) 9–10 ball: tashqi ko'rinishi professional, maktab standartlariga mos, ozoda va ishonchli. 7–8 ball: tashqi ko'rinishi umumiy jihatdan mos, ammo kichik kamchiliklar mavjud. 4–6 ball: tashqi ko'rinishi qabul qilinishi mumkin, ammo professional darajani aks ettirmaydi. 1–3 ball: tashqi ko'rinishi beparvo, salbiy taassurot uyg'otadi. 0 ball: nomzod aniq tayyor emas (ozodalik yo'q, talablarga mos emas).	
	1.2. Ko'rgazmali vositalar va TSOdan foydalanish 9–10 ball: materiallar sifatli, maqsadga muvofiq va o'qitishga yordam beradi. 7–8 ball: materiallar mavjud, ammo kamchiliklari bor. 4–6 ball: materiallar ortiqcha yuklangan yoki samarasiz qo'llangan. 1–3 ball: materiallar qabul qilishga xalaqit beradi. 0 ball: mavjud emas.	
2.Dars boshlanishini tashkil etish	2.1. Dars bosqichlari bo'yicha vaqt taqsimoti 9–10 ball: vaqt aniq taqsimlangan, barcha bosqichlar yakunlangan. 7–8 ball: kichik og'ishlar bor, ammo struktura buzilmagan.	

	4–6 ball: jiddiy og‘ishlar bor, ayrim bosqichlar qisqartirilgan. 1–3 ball: vaqt taqsimoti muvaffaqiyatsiz, dars mantig‘i buzilgan. 0 ball: dars bosqichlariga umuman rioya etilmadi.	
	2.2. Yangi ma’lumotlarni qabul qilishga tayyorlash (faollashtirish) 9–10 ball: qiziqarli va motivatsion faollashtirish. 7–8 ball: faollashtirish bor, ammo kuchsiz. 4–6 ball: rasmiy xarakterdagi faollashtirish. 1–3 ball: faollashtirish samarasiz. 0 ball: faollashtirish mavjud emas.	
	2.3. Fanga qiziqishni rivojlantirish 9–10 ball: diqqatni faollashtirish, motivatsiya va jalb qilish yuqori. 7–8 ball: qiziqish qisman saqlanadi. 4–6 ball: qiziqish past. 1–3 ball: barcha o‘quvchilar jalb qilinmagan. 0 ball: qiziqish mavjud emas.	
	2.4. Ma’lumotlarni umumlashtirish 9–10 ball: avvalgi bilimlar bilan aniq bog‘liqlik mavjud. 7–8 ball: bog‘liqlik bor, ammo to‘liq ochilmagan. 4–6 ball: bog‘liqlik kuchsiz. 1–3 ball: bog‘liqlik juda zaif. 0 ball: bog‘liqlik mavjud emas.	
	2.5. So‘rovning umumiy metodikasi 9–10 ball: turli metodlar, barcha o‘quvchilarni teng jalb qilish. 7–8 ball: so‘rov bor, ammo notekis. 4–6 ball: rasmiy so‘rov. 1–3 ball: tartibsiz so‘rov. 0 ball: so‘rov mavjud emas.	
3. Bilimlarni takrorlash va aktuallashtirish	3.1. O‘yinlar va musobaqalardan foydalanish 9–10 ball: o‘yinlar o‘rinli va ishtirokni rag‘batlantiradi. 7–8 ball: o‘yinlar bor, ammo to‘liq samarali emas. 4–6 ball: rasmiy o‘yinlar. 1–3 ball: o‘yinlar samarasiz. 0 ball: o‘yinlar mavjud emas.	
	3.2. Qayta aloqa (tushunishni tekshirish) 9–10 ball: tushunish muntazam tekshiriladi (savollar, mini-testlar, signallar). 7–8 ball: tekshirish bor, ammo muntazam emas. 4–6 ball: rasmiy tekshirish.	

	1–3 ball: epizodik va samarasiz tekshirish. 0 ball: tekshirish mavjud emas.	
	3.3. O‘quvchilar bilimini baholash 9–10 ball: obyektiv, to‘g‘ri va motivatsion baholash. 7–8 ball: baholash bor, ammo doim ham asosli emas. 4–6 ball: rasmiy baholash. 1–3 ball: tartibsiz va izchil bo‘lmagan baholash. 0 ball: baholash mavjud emas.	
4. Yangi materialni tushuntirish	4.1. Mantiqiy o‘tish 9–10 ball: silliq va mantiqiy o‘tish. 7–8 ball: o‘tish mavjud, ammo ideal emas. 4–6 ball: o‘tish kuchsiz. 1–3 ball: o‘tish juda zaif. 0 ball: o‘tish bosqichi amalga oshirilmadi.	
	4.2. O‘quv vazifasini qo‘yish 9–10 ball: vazifa aniq, ahamiyati ochib berilgan. 7–8 ball: vazifa bor, ammo to‘liq ochilmagan. 4–6 ball: rasmiy vazifa. 1–3 ball: vazifa tushunarsiz. 0 ball: mavjud emas.	
	4.3. Bolalarning avvalgi tajribasidan foydalanish 9–10 ball: o‘quvchilar tajribasiga faol tayanadi. 7–8 ball: tayanish bor, ammo kuchsiz. 4–6 ball: tayanish bor, rasmiy. 1–3 ball: tayanish bor, juda kam. 0 ball: tayanish yo‘q.	
	4.4. Tushuntirish metodikasi 9–10 ball: aniq, tuzilgan, zamonaviy. 7–8 ball: umumiy jihatdan yaxshi. 4–6 ball: ortiqcha yuklangan yoki kuchsiz. 1–3 ball: tushunarsiz. 0 ball: mavjud emas.	
	4.5. Ma’lumotni mantiqiy qayta ishlashga o‘rgatish 9–10 ball: tahlil, solishtirish va xulosa chiqarishga o‘rgatadi. 7–8 ball: qisman o‘rgatadi. 4–6 ball: rasmiy. 1–3 ball: juda kam o‘rgatadi. 0 ball: o‘rgatmaydi.	
	4.6. Asosiy jihatlariga diqqatni jamlash 9–10 ball: diqqatni jamlash kuchli. 7–8 ball: diqqatni jamlash qisman. 4–6 ball: diqqatni jamlash kuchsiz.	

	1–3 ball: diqqatni jamlash tarqoq. 0 ball: mavjud emas.	
	4.7. Emotsional muhit 9–10 ball: ijobiy va motivatsion muhit. 7–8 ball: umumiy jihatdan ijobiy. 4–6 ball: ijobiylik juda past. 1–3 ball: neytral. 0 ball: salbiy.	
	4.8. Xatolarni tuzatish 9–10 ball: yumshoq va samarali tuzatadi. 7–8 ball: tuzatadi, ammo doim emas. 4–6 ball: rasmiy tuzatish. 1–3 ball: tuzatadi ammo kam. 0 ball: xatolarni e'tiborsiz qoldiradi.	
5. Bilimlarni mustahkamlash	5.1. Dastlabki mustahkamlashni tashkil etish 9–10 ball: topshiriqlar o'rinli va samarali. 7–8 ball: topshiriqlar bor, ammo optimal emas. 4–6 ball: rasmiy topshiriqlar. 1–3 ball: samarasiz topshiriqlar. 0 ball: topshiriqlar mavjud emas.	
	5.2. Nazorat, baholash va bilimni qo'llash 9–10 ball: tizimli va obyektiv nazorat. 7–8 ball: nazorat bor, ammo doim aniq emas. 4–6 ball: rasmiy nazorat. 1–3 ball: tartibsiz nazorat. 0 ball: mavjud emas.	
	5.3. Bilish faoliyatini faollashtirish 9–10 ball: o'quvchilar faol jalb qilingan. 7–8 ball: qisman jalb qilingan. 4–6 ball: jalb qilish rasmiy. 1–3 ball: jalb qilish kuchsiz. 0 ball: jalb qilish yo'q.	
	5.4. Differensiatsiya (frontal, guruhli, individual ish) 9–10 ball: turli ish shakllaridan foydalanadi. 7–8 ball: shakllar bor, ammo to'liq samarali emas. 4–6 ball: rasmiy shakllar. 1–3 ball: shakllar samarasiz. 0 ball: mavjud emas.	
6. Uy vazifasi	Vazifa berish vaqti, yo'riqnoma, bajarishga tayyorlash 9–10 ball: aniq, tushunarli va motivatsion. 7–8 ball: yo'riqnoma bor, ammo ideal emas. 4–6 ball: rasmiy yo'riqnoma.	

	1–3 ball: tushunarsiz yo‘riqnoma. 0 ball: mavjud emas.	
7. Dars yakunlarini chiqarish	Dars yakunlarini chiqarish (mazmunli va emotsional) 9–10 ball: aniq xulosalar, emotsional qo‘llab-quvvatlash va kelajakka yo‘naltirish. 7–8 ball: xulosalar bor, ammo to‘liq ochilmagan. 4–6 ball: rasmiy xulosalar. 1–3 ball: kuchsiz xulosalar. 0 ball: mavjud emas.	
JAMI (maksimal 240 ball)		
Umumiy xulosalar va qaydlar		

Ochiq yoki sinov dars uchun yakuniy baho baholash mezonida keltirilgan Pedagogik va didaktik talablarni amalga oshirish bo‘yicha nomzod faoliyati turlarining barchasi ya’ni barcha mezonlar bo‘yicha qo‘yilgan ballar yig‘indisining o‘rtacha arifmetik qiymati asosida aniqlanadi (barcha mezonlar bo‘yicha to‘plangan ballar yig‘indisi faoliyat turlari soni (24)ga bo‘linadi).

Dars uchun baho: _____ ball

Darsni baholadi:

F.I.Sh. _____

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari
agentligi tizimidagi Xorijiy tillarga
ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga
malakali pedagog kadrlarni tanlash,
baholash va ishga tavsiya etish tartibi
to'g'risidagi
nizomga 3-ilova

Suhbatni baholash varaqasi

Nomzodning F.I.Sh.	
Fan	
Suhbat o'tkazilgan sana	

T/r	Nomzodning bilim, ko'nikma va tajribasiga doir berilgan savollar	Nomzodga qo'yilgan ball	Maksimal ball
1	Xalqaro maktablarda ishlash tajribasi		10
2	Ingliz tilini bilish darajasi		10
3	Yetakchilik va jamoada ishlay olish qobiliyati		5
4	O'quvchilarda 21-asr ko'nikmalari rivojlantiruvchi dars o'ta olish malakasi		5
5	O'z fani doirasida erishgan yutuqlari		5
6	Ilmiy darajasining mavjudligi		10
7	Kembrij o'quv dasturlari bo'yicha sertifikatlarning mavjudligi		10
8	Stressga bardoshliligi		10
9	Nomzod haqida avvalgi ish joylaridan xulosalar		5
10	Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmalari		10
11	Mutaxassislik fanini bilish darajasi		10
12	Berilgan savollarga javoblarning aniq, lo'nda va teranligi, muloqot qobiliyati va nutq ravonligi.		10
Jami ball:			

Berilgan javoblar bo'yicha izohlar (zaruriyatga ko'ra):

Suhbatni baholadi:

F.I.Sh. _____

(imzo)

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirining
2026-yil "8" - iyuldagi
245-son buyrug'iga
2-ILOVA

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Xorijiy tillarga
ixtisoslashtirilgan maktab-internat uchun xorijiy mutaxassislarni tanlash,
baholash va ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom **Xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat** (keyingi o'rinlarda – maktab)da faoliyat olib boruvchi xorijiy mutaxassislar va o'qituvchilarni tanlash (keyingi o'rinlarda – tanlov), tavsiya etish va ishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom doirasida o'tkaziladigan tanlovda xorijiy davlat fuqarolari bo'lgan, ingliz tilini yaxshi biladigan, oliy ma'lumotli va kamida 5 (besh) yil pedagogik stajga ega bo'lgan (shundan 3 (uch) yili rivojlangan davlatlarda), Kembrij va IB xalqaro o'quv dasturi asosida dars o'tish tajribasiga ega hamda mazkur nizom bilan belgilanadigan boshqa malaka talablariga javob beradigan shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

3. Tanlovning maqsadi Maktabda faoliyat olib borishi uchun zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori kasbiy bilim va mahoratga, ijodiy va ilmiy salohiyatga, yuksak axloqiy va ma'naviy sifatlarga ega, ingliz tili ikkinchi til ekanligini inobatga olgan holda dars bera oladigan, moslashuvchan malakali xorijiy mutaxassislar va o'qituvchilarni jalb qilish hamda ularni shaffoflik, tenglik va sog'lom raqobat prinsiplari asosida saralab olish maqsadida tashkil etiladi

4. Tanlov maktabda mavjud bo'lgan yoki yuzaga keladigan bo'sh ish o'rinlari, ta'lim jarayonining ehtiyojlari hamda tegishli fan yo'nalishlari bo'yicha malakali kadrlarga bo'lgan talabdan kelib chiqib tashkil etiladi.

2-bob. Tanlovni tashkil etish tartibi

5. Maktabning xorijiy mutaxassis va o'qituvchi lavozimlaridagi bo'sh o'rinlar uchun tanlov asosan ikki (hujjatlarni nizom talablariga muvofiqligini o'rganib chiqish va suhbat) bosqichda o'tkaziladi. Xorijiy o'qituvchilarni saralash jarayonida Komissiya tomonidan lozim deb topilganda, uchinchi (onlayn dars o'tish) bosqichi ham o'tkazilishi mumkin.

6. Maktabda xorijiy mutaxassis va o'qituvchi lavozimlarida bo'sh o'rin yuzaga kelganda maktab direktori tomonidan bu haqida 3 (uch) ish kuni ichida Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (keyingi o'rinlarda - Agentlik) xabardor qilinadi.

7. Agentlik o'zining rasmiy veb-saytida va boshqa rasmiy saytlarda e'lon beradi, shuningdek ishga yollash bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi xorijiy tashkilotlarga so'rov jo'natadi.

E'londa quyidagilar ko'rsatiladi:

tanlov o'tkazilayotgan lavozim va unga qo'yiladigan talablar;
tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati;
aloqa uchun elektron pochta manzillari;
rasmiy veb-sayt havolasi.

8. Maktabdagi xorijiy mutaxassis va o'qituvchi lavozimlaridagi bo'sh o'rinlarga xorijiy nomzodlar quyidagi shaxslar qatoridan jamlanadi:

STEM fanlari bo'yicha o'qituvchi lavozimini egallash uchun tanlovda pedagogik mutaxassislik bo'yicha bakalavr yoki magistr darajasiga ega xorijiy mutaxassislar;

belgilangan fan bo'yicha yetarli bilimga ega, xalqaro o'quv dasturlariga muvofiq (Lower Secondary, IGCSE, AS, A-level yoki IB DP) darajalarida dars o'ta olish;

xorijiy til fanlari o'qituvchilari lavozimi uchun belgilangan tilni xorijiy til sifatida o'qitish bo'yicha xalqaro tan olingan sertifikatga, jumladan TESOL, CTCSOL yoki ularga tenglashtirilgan sertifikatga, shuningdek tegishli yo'nalish bo'yicha bakalavr yoki magistr darajasiga ega nomzodlar;

tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, belgilangan malaka talablariga javob beradigan xorijiy mutaxassislar "Cambridge assessment" sertifikatidan tashqari, yuqori sinflar uchun A-level va IB natijalari bo'yicha ishlash tajribasi hamda ularning amalda qo'llanilish samaradorligini (lesson impact) aniqlashga qaratilgan portfolio mavjud bo'lgan talabgorlar tanlovda ishtirok etishlari mumkin.

9. Nomzodlarning ma'lumotnomalari qabul qilinib va o'rganib chiqilgandan so'ng suhbat bosqichi o'tkaziladi. Suhbat natijasidan kelib chiqib, Komissiya tomonidan lozim deb topilganda, nomzod talabgor bo'lgan fanning muayyan mavzusi bo'yicha Cambridge Lower Secondary, IGCSE, AS, A-level yoki IB formati asosida onlayn dars (demo dars) o'tadi.

10. Suhbatda qatnasha olmaganlar uchun nomzodning talabi hamda tanlov komissiyasining roziligiga ko'ra qo'shimcha suhbat tashkillashtiriladi.

11. Dastlabki taklif xati (Initial Offer Letter)da ko'rsatilgan hujjatlar va ularning nusxalarini belgilangan muddat ichida taqdim etmagan nomzodlar qayta aloqaga chiqish orqali muddatni belgilangan vaqtga qadar uzaytirishlari mumkin.

3-bob. Xorijiy mutaxassislar va o'qituvchilarga oid umumiy talablar

12. Xorijiy mutaxassislar va o'qituvchilarga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi:

Agentlik hamda maktabning bosh maqsadi va qarashlarini amalga oshirish borasida samarali faoliyat olib borish;

Agentlikning o'quv rejasi talablari va standartlariga muvofiq imtihonlar, baholash jarayonlari va amaliyotlar o'tkazish;

o'quv dasturlari talablarini tushunish va ushbu talablarga javob beradigan o'quv rejalari yaratish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini o'z ichiga olgan dars ishlanmalarini yaratish;

o'quvchilarning akademik faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishlarini ta'minlash uchun yuqori sifatli baholash va fikr-mulohazalar strategiyasidan foydalana olish;

o'quvchilar ehtiyojidan kelib chiqib, qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish, maktabning ijtimoiy hayotiga, jumladan, keng ko'lamli o'quv dasturi va jamoat tadbirlariga hissa qo'shish;

o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini muntazam kuzatish va shu asosida o'qitish strategiyalari va usullarini takomillashtirib borish;

amaliy mashg'ulotlar va guruh loyihalari orqali o'quvchilarga tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish;

o'quvchilarning turli xil o'rganish uslublari, qobiliyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda fan doirasidagi darslarni tabaqalashtirilgan ta'lim yondashuvi asosida rejalashtirish;

past o'zlashtiruvchi va iqtidorli o'quvchilarga alohida yondashuv asosida vazifalar tayyorlash va ishlash;

o'quvchilar fan bo'yicha muvaffaqiyatga erishishlari uchun akademik maqsadlar qo'yish, ularga o'z fikrlarini erkin ifoda eta olishga ko'maklashish;

pedagogik jarayon hamda tegishli mehnat faoliyatini professional tarzda tashkil etish va olib borish;

maktab ma'muriyati bilan o'quvchilarning muvaffaqiyati yoki sinfdagi qiyinchiliklar haqida muntazam hisobot berib borish;

mutaxassislik fani doirasida mahalliy pedagog kadrlar uchun kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida mahorat darslarini tashkil etish;

mutaxassislik fani doirasida mahalliy pedagog kadrlar uchun muntazam ravishda mentorlik (murabbiylik) tizimini yo'lga qo'yish va ularning kasbiy rivojlanishini tizimli qo'llab-quvvatlash;

pedagog sifatida o'quvchilar jamoasining bir qismi bo'lishga intilish;

o'quvchilarning kundan-kunga o'zgarib turadigan ta'limiy ehtiyojlarini qondirish uchun moslashuvchan bo'lish;

sinfdan tashqari to'garaklar orqali xodimlar orasida yetakchilik qobiliyatini namoyish etgan holda maktab faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

zarur bo'lganda maktab tadbirlari, metodbirlashma va boshqa yig'ilishlarida ishtirok etish;

fanlararo loyihalarni (Cross-curricular projects) mustaqil loyihalashtirish va amalga oshirish;

o'quv jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalari (LMS platformalari) va sun'iy intellekt (AI) vositalaridan foydalanib o'quv materiallarini tayyorlash hamda ulardan baholash jarayonida samarali foydalana olish;

akademik yil uchun belgilab berilgan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) to'liq ta'minlash.

4-bob. Xorijiy mutaxassislar va o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar

13. Xorijiy mutaxassislar va o'qituvchilarga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi:

ta'lim yoki mutaxassislik fani bo'yicha bakalavr darajasi;

kelib chiqish mamlakatidan o'qitish sertifikat (Teaching Licence);

rivojlangan davlatlar yoki xalqaro maqomga ega maktablarda mutaxassislik fani bo'yicha kamida 3 (uch) yillik o'qituvchilik tajribasi;

Kembrijning LS, IGCSE, AS, A darajalari va IBOning IB DP o'quv dasturlari asosida dars o'tish tajribasiga ega bo'lishi;

o'z fani yo'nalishida Kembrij xalqaro o'quv dasturining LS, IGCSE, AS, A darajalari va IBOning IB DP darajasiga mos keladigan qiziqarli va puxta ishlab chiqilgan dars rejalarini mahalliy o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqish va o'qitish;

o'quvchilarning bilimi va o'zlashtirishini monitoring qilib borish maqsadida Kembrijning LS, IGCSE, AS, A darajalari va IBOning IB DP o'quv dasturiga muvofiq baholashni ishlab chiqish va boshqarish;

madaniyatlararo sezgirlik va yangi muhitga moslashish qobiliyati, yangiliklarni o'rganishga tayyorligi;

ijodkorlik va ijobiy munosabat;

ingliz tilini (agar nomzod ushbu til sohibi bo'lmasa) bilish darajasini tasdiqlovchi xalqaro tan olingan va oxirgi 2 yil ichida olingan sertifikatga ega bo'lishi (IELTS Academic – 7.5 +, TOEFL iBT 96+, TOEFL PBT - 587+, CEFR – C1+ yoki TEFL, TESOL).

Ustunlik beradigan, lekin majburiy bo'lmagan talablar:

pedagogika, ta'lim yoki tegishli yo'nalish bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasi yoki ilmiy muassasalarning fan doktori (DSc) darajasi;

pedagogika, ta'lim yo'nalishi yoki tegishli yo'nalish bo'yicha magistr (PostGraduate) darajasi;

5 (besh) yildan ortiq o'qituvchilik tajribasi.

14. Matematika fani o'qituvchilari quyidagilarni bilishlari lozim:

fan yo'nalishi bo'yicha Kembrij xalqaro o'quv dasturining IGCSE, AS, A darajalari va IBOning IB DP dasturi bo'yicha imtihonlarga o'quvchilarni tayyorlay olish;

matematik tushunchalar va jarayonlarni kundalik hayotiy vaziyatlar bilan bog'lay olish;

matematik fikrlash va izlanishni vizual tasvirlar, yozma ish va nutq orqali tatbiq qilish;

o'quvchilarga matematikaning o'рни va maqsadini real hayotga bog'lagan holda o'rgatish;

o'z darslarini boshqa STEM fanlari bilan o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etish;

o'quvchilarni xalqaro testlar (IGCSE, AS, A-level, IB DP, SAT)ga tayyorlash bo'yicha qo'shimcha darslarni tashkil eta olish;

IB yoki Cambridge tizimidagi o'quvchilarning mustaqil ilmiy ishlariga (Research projects) rahbarlik qilish tajribasi;

o'quvchilarni nufuzli xalqaro va mahalliy olimpiadalarga tayyorlash.

15. Biologiya fani o'qituvchilari quyidagilarni bilishlari lozim:

biologiya fani yo'nalishi bo'yicha Kembrij xalqaro o'quv dasturining IGCSE, AS, A darajalari va IBOning IB DP dasturi bo'yicha imtihonlarga o'quvchilarni tayyorlay olish;

dars jarayoni, laboratoriya ishlari va darsdan tashqari ekskursiyalarda xavfsizlik qoidalarini bilish, ushbu talab va qoidalarni barcha o'quvchilarga yetkaza olish, laboratoriya ishlarini to'g'ri tashkil qilish;

o'quvchilarning qiziqish, qobiliyatlari va ehtiyojlari asosida, qiziqarli dars ishlanmalarini tayyorlash va o'tkazish;

o'quvchilar sinfda nozik mavzularni muhokama qilishda o'zlarini qulay va xavfsiz his qilishlari uchun sharoit yarata olish;

o'quvchilarni mahalliy va xalqaro olimpiadalar, fan yarmarkalari, tanlovlar va ko'rgazmalarda qatnashishga undash va ularni ushbu tadbirlarga tayyorlash;

o'z darslarini boshqa STEM fanlari bilan o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etish;

o'quvchilarni nufuzli xalqaro va mahalliy olimpiadalarga tayyorlash;

IB yoki Cambridge tizimidagi o'quvchilarning mustaqil ilmiy ishlariga (Research projects) rahbarlik qilish tajribasi;

sinfdan tashqari mashg'ulotlar va to'garaklar orqali hamda xodimlar orasida yetakchilik qobiliyatini ko'rsatgan holda maktab faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

16. Kompyuter ta'limi fani o'qituvchilari quyidagilarni bilishlari lozim:

o'quvchilarni kompyuter ta'limi fani yo'nalishi bo'yicha Kembrij xalqaro o'quv dasturining IGCSE, AS, A darajalari va IBOning IB DP dasturi bo'yicha imtihonlarga yuqori darajada tayyorlay olish;

o'quvchilarga kompyuter fanlari bo'yicha loyihalar, dizayn ishi va amaliy ishlarni amalga oshirishda yordam berish;

o'quvchilarga algoritmlar, ma'lumotlar tuzilmalari, kompyuter fanlari terminologiyasini o'rgatish;

loyiha ishlarida muvaffaqiyatga erishish uchun qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga individual e'tibor qaratish (tabaqalashtirilgan ta'lim yondashuvi);

o'z darslarini boshqa STEM fanlari bilan o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etish;

o'quvchilarni nufuzli xalqaro va mahalliy olimpiadalarga tayyorlash;

IB yoki Cambridge tizimidagi o'quvchilarning mustaqil ilmiy ishlariga (Research projects) rahbarlik qilish tajribasi;

o'quvchilarga dasturlash tillari, operatsion tizimlar va boshqa tushunchalarni o'rgatish orqali ularni kompyuter fanlari sohasida kelajakdagi kasblarga tayyorlash.

17. Fizika fani o'qituvchilari quyidagilarni bilishlari lozim:

o'quvchilarni fizika fani yo'nalishi bo'yicha Kembrij xalqaro o'quv dasturining IGCSE, AS, A darajalari va IBOning IB DP dasturi bo'yicha imtihonlarga yuqori darajada tayyorlay olish;

sohadagi o'zgarishlar va tadqiqotlardan xabardor bo'lish va darslarning dolzarbligini ta'minlash uchun undan foydalanish;

laboratoriya mashg'ulotlarini nazorat qilish, amaliy ko'rgazmalar o'tkazish va o'quvchilarni ekskursiyada kuzatib borish;

o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida xavfsizlik qoidalariga muvofiq holda amaliy/laboratoriya tajribalarini loyihalashtirish va olib borish;

fizika yo'nalishida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ilmiy izlanish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi loyihalarni yaratish va olib borish;

o'z darslarini boshqa STEM fanlari bilan o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etish;

o'quvchilarni nufuzli xalqaro va mahalliy olimpiadalarga tayyorlash;

IB yoki Cambridge tizimidagi o'quvchilarning mustaqil ilmiy ishlariga (*Research projects*) rahbarlik qilish tajribasi;

o'quvchilarni baholash mezonlari, shakllari va kutilayotgan natijalar bilan tanishtirish.

18. Kimyo fani o'qituvchilari quyidagilarni bilishlari lozim:

o'quvchilarni kimyo fani yo'nalishi bo'yicha Kembrij xalqaro o'quv dasturining IGCSE, AS, A darajalari va IBOning IB DP dasturi bo'yicha imtihonlarga yuqori darajada tayyorlay olish;

o'quvchilarga laboratoriya xavfsizligi bo'yicha tushuntirish ishlarini muntazam ravishda hamda Kembrij xalqaro o'quv dasturiga muvofiq ravishda olib borish, barcha tajribalarni mas'uliyat bilan o'tkazilishini ta'minlash;

Kimyo fani yo'nalishida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ilmiy izlanish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi loyihalarni yaratish va olib borish;

o'quvchilarni nufuzli xalqaro va mahalliy olimpiadalarga tayyorlash;

IB yoki Cambridge tizimidagi o'quvchilarning mustaqil ilmiy ishlariga (*Research projects*) rahbarlik qilish tajribasi;

o'z darslarini boshqa STEM fanlari bilan o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etish.

19. Ingliz tili o'qituvchilari quyidagilarni bilishlari lozim:

Chet (*ingliz*) tilini o'qitishning asosiy nazariya va tamoyillari haqida chuqur bilim va tajribaga ega bo'lishi;

dars mazmuni, o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojidan kelib chiqqan holda darslarni samarali tashkil etish;

o'quvchilarni ingliz tili fani yo'nalishi bo'yicha Kembrij xalqaro o'quv dasturining IGCSE, AS, A darajalari va IBOning IB DP dasturi bo'yicha imtihonlarga yuqori darajada tayyorlay olish;

Maktabda ingliz tili xorijiy til ekanini inobatga olgan holda darslarni rejalashtirish, o'quvchilarni IELTS (Academic) va SAT xalqaro imtihonlariga tayyorlash;

O'quvchilarni xalqaro jurnallarda maqola chiqarish yoki universitetlarga "Personal Statement" yozishga tayyorlash ko'nikmasi;

o'quvchilarning Kembrij xalqaro o'quv dasturi va STEM fanlarini ingliz tilida o'zlashtira olishiga e'tibor qaratish;

o'quvchilarning o'zlashtirishi va bilimni tekshirib borish uchun baholashning turli strategiyalarini qo'llay olish;

jahon hamda til o'rganilayotgan mamlakat adabiyotini o'rgatish orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;

o'z darslarini boshqa STEM fanlari bilan o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etish;

o'quvchilarni nufuzli xalqaro va mahalliy olimpiadalarga tayyorlash;

darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar uchun IELTS, SAT va shu toifadagi xalqaro imtihonlar bo'yicha ingliz tilini bilish darajasini aniqlash uchun test topshiriqlari ishlab chiqish va to'garaklar tashkil qilish.

talabgor TEFL yoki TESOL sertifikatlaridan birga ega bo'lsa ustunlik beradi.

20. Zamonaviy yondashuv fani o'qituvchilari quyidagilarni bilishlari lozim:

Kembrij xalqaro ta'lim dasturining Zamonaviy Yondashuvlar fanini o'qitish (LS, IGCSE, AS va A-level darajasigacha o'qitish potensiali talab etiladi);

atrof-muhit, gumanitar fanlar, global muammolarga asoslangan mavzular bo'yicha individual va hamkorlikda tadqiqotga asoslangan ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha barcha sinflarni qamrab olgan holda darslarni rejalashtirish va o'tkazish;

o'quvchilarning sinf ishlarini, hamkorlikdagi tadqiqot ishlarini, topshiriqlari va imtihon varaqalarini baholash;

o'quv dasturlari, uy vazifalari va birgalikdagi hamda individual tadqiqot loyihalari kabi o'quv materiallarini tayyorlash;

Kembrij xalqaro ta'lim standarti bo'yicha tuzilgan baholash mezonini sifatida amaliy tadqiqot loyihalarini boshqarish va baholash;

o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va muammolarni turli nuqtayi nazarlardan ko'rib chiqishga o'rgatish;

o'z darslarini boshqa STEM fanlari bilan o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etish;

o'quvchilarga global ahamiyatga ega bo'lgan masalalar bo'yicha o'z fikrlarini rivojlantirishga yordam berish.

21. Tabiiy fanlar (Science) fani o'qituvchilari quyidagilarni bilishlari lozim:

o'quvchilarning tabiiy fanlar yo'nalishidagi savodxonligini rivojlantirish, ularning ilmiy fikrlash qobiliyatlarini rag'batlantirish, ilmiy farazlar va savollarni shakllantirishni o'rgatish;

o'quvchilarning tabiiy fanlarga qiziqishi va qiziquvchanligini uyg'otish asosida tegishli kundalik voqealardan foydalanish va ularda tabiiy izlanuvchanlikni faollashtirish;

sinf xonasi, laboratoriya va ekskursiya talablari va qoidalarini belgilash va ularni to'g'ri tashkil etish;

o'quvchilarga eksperimentlar o'tkazishda ko'maklashish va nazorat qilish;

dars ishlanmalarini ishlab chiqish jarayonida o'quvchilarning til qobiliyatlariga sezgir bo'lishi hamda sinf darajasi va fan mazmuniga mos ravishda tabiiy fanlar doirasidagi atamalarni qo'llashi;

o'z darslarini boshqa STEM fanlari bilan o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etish;

amaliy laboratoriya va loyiha ishlarini tashkil etishda o'quvchilarning xavfsizligi hamda umumiy tartib-qoidalariga amal qilish.

5-bob. Tanlovni o'tkazish tartibi

22. Komissiya yig'ilishi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

23. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi Tashqi aloqalar va investitsiyalarni jalb qilish bo'limi Komissiya faoliyatiga ko'maklashish uchun, shu jumladan, nomzodlarga oid hujjatlar jamlanmasini o'rganish va ishga qabul qilingan nomzodlarga viza olish bo'yicha mas'ul hisoblanadi.

24. Saralash bosqichida Komissiya tomonidan e'londa belgilangan hujjatlar ushbu nizomga hamda lavozimga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kelishi, ish va o'qish joyidan nomzod haqidagi ma'lumotlar dastlabki tarzda o'rganib chiqiladi.

25. O'quv yili davomida turli sabablarga ko'ra (*shartnomaning muddatidan oldin bekor qilinishi, pedagogning sinov muddatidan muvaffaqiyatli o'ta olmasligi va hokazo*) bo'shab qolgan ish o'rinlarini to'ldirish maqsadida qo'shimcha tanlov tashkil etilishi mumkin.

26. Quyidagi hollarda nomzod tanlovda ishtirok eta olmaydi:

nomzod tomonidan talablarga mos ravishda ishga kirish uchun hujjatlar o'z vaqtida to'liq taqdim qilinmaganda;

qalbaki hujjatlar yoki yolg'on ma'lumotlar taqdim etganda;

sud hukmiga ko'ra pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi man etilganligi aniqlanganda;

sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz (*muomala layoqati cheklangan*) deb topilganlar;

tibbiyot muassasalarida muayyan toifadagi kasalliklar bo'yicha ro'yxatdan turgan shaxslar.

27. Suhbat jarayonlari onlayn o'tkaziladi va suhbat jarayoni yozib boriladi.

28. Nomzodlarga Komissiya tomonidan ilovada keltirilgan baholash mezonlari talablari doirasida savollar beriladi.

29. Nomzod tomonidan berilgan har bir javob mazkur Nizomning 1-ilovasidagi shaklga muvofiq maksimal 100 (*yuz*) ballgacha baholanadi.

30. Suhbat yakunida komissiya a'zolarining har biri berilgan javoblar bo'yicha o'z fikrlarini bildiradi hamda qo'ygan ballarini e'lon qiladi. Qo'yilgan ballarning o'rtacha qiymati chiqariladi va suhbatni baholash varaqasiga kiritiladi.

31. Har bir nomzod uchun mazkur Nizom ilovasida keltirilgan baholash varaqasi to'ldiriladi va ballarni o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

32. Komissiya tomonidan taqdim etilgan baholash varaqasi Komissiya yig'ilishida ko'rib chiqiladi va yakuniy xulosa tayyorlanadi.

33. Tanlov jarayonlari yakunida o'tkazilgan suhbatlar yuzasidan bayonnoma rasmiylashtiriladi, Komissiya kotibi tomonidan imzolanadi va Komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi;

34. Tanlov natijalari 10 (o'n) ish kuni ichida nomzod tomonidan taqdim etilgan elektron pochta manziliga xabarnoma shaklida yuboriladi.

35. Tanlov natijalari bo'yicha nomzodga elektron pochta orqali yuborilgan xabarlarni nomzod tomonidan o'qilmasligi, (*arizada ko'rsatilgan telefon raqam/elektron pochta manzilining ishchi holatda bo'lmasligi va h.k.*) bo'yicha javobgarlik Komissiya zimmasiga yuklanmaydi.

6-bob. Xorijiy mutaxassislar va o'qituvchilarning maktabdagi faoliyatini yo'lga qo'yish

36. Komissiya bayonnomasiga asosan tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar Agentlikning qaroriga ko'ra belgilangan tartibda maktab direktori bilan mehnat shartnomasini tuzadi va buyruq asosida ishga qabul qilinadi.

37. Xorijiy mutaxassislar va o'qituvchilarning faoliyatida yo'l qo'ygan kamchiliklari sababli maktab u bilan tuzilgan shartnomani muddatidan avval bekor qilish huquqiga ega.

38. Agentlik xorijiy mutaxassis va o'qituvchilarning ish faoliyatini tahlil qilingan holda, zaruratga ko'ra ularning ish joyini Agentlik tizimidagi boshqa maktabga ko'chirish huquqiga ega.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

39. Nomzodlarni tanlovdan o'tkazish bilan bog'liq mehnat nizolari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

40. Mazkur nizomda nazarda tutilmagan holatlar amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat uchun xorijiy mutaxassislarni tanlash, baholash va ishga qabul qilish tartibi to'g'risida nizomga ilova

Suhbatni baholash varaqasi

Nomzodning F.I.Sh.	
Fan	
Suhbat o'tkazilgan sana	

	Nomzodning bilim, ko‘nikma va tajribasiga doir berilgan savollar	Nomzodga qo‘yilgan ball	Maksimal ball
1	Xalqaro maktablarda ishlash tajribasi		10
2	Ingliz tilini bilish darajasi		10
3	Yetakchilik va jamoada ishlay olish qobiliyati		5
4	O‘quvchilarda 21-asr ko‘nikmalari rivojlantiruvchi dars o‘ta olish malakasi		5
5	O‘z fani doirasida erishgan yutuqlari		5
6	Ilmiy darajasining mavjudligi		10
7	Kembrij yoki IB o‘quv dasturlari bo‘yicha sertifikatlarning mavjudligi		10
8	Stressga bardoshliligi		10
9	Nomzod haqida avvalgi ish joylaridan xulosalar		5
10	Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalana olish ko‘nikmalari		10
11	Mutaxassislik fanini bilish darajasi		10
12	Berilgan savollarga javoblarning aniq, lo‘nda va teranligi, muloqot qobiliyati va nutq ravonligi.		10
	Jami ball		

Berilgan javoblar bo'yicha izohlar (zaruriyatga ko'ra):

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi tayanch maktablar
va ularning filiallari, hududiy hamda muhandislik yo'nalishlaridagi
ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar uchun malakali rahbar
kadrlarni tanlash, baholash va ishga qabul qilish tartibi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) tizimidagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi va Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablar va ularning filiallari, Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab, hududiy hamda muhandislik yo'nalishlaridagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablar (keyingi o'rinlarda – ixtisoslashtirilgan maktablar) ning rahbar kadrlar lavozimlariga munosib nomzodlarni aniqlash, ularni tanlov asosida saralash, baholash, tavsiya etish hamda ishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

rahbar kadrlar lavozimlari – ixtisoslashtirilgan maktablarning direktor, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, maktab maslahatchisi, kadrlar bo'yicha menejer hamda psixolog lavozimlari;

tanlov – ixtisoslashtirilgan maktablardagi bo'sh (vakant) bo'lgan rahbar kadrlar lavozimlarini egallash istagini bildirgan shaxslar orasidan munosibini tanlab olish maqsadida ikki bosqichda tashkil etiladigan jarayon;

nomzod – ixtisoslashtirilgan maktablardagi bo'sh (vakant) bo'lgan rahbar kadrlar lavozimlaridan birini egallash uchun tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxs;

malaka talablari – nomzodlarga nisbatan Agentlik tomonidan belgilanadigan, nomzodning ma'lumotiga, ish tajribasiga va kasbiy kompetensiyasiga doir talablar;

ishchi guruh – tanlovning saralash bosqichini tashkil etish va o'tkazishni ta'minlash maqsadida Tanlov komissiyasi tomonidan tuziladigan Agentlik tizimidagi maktablar xodimlaridan iborat tarkib;

apellyatsiya komissiyasi – nomzodlarning tanlov natijalari ustidan qilingan shikoyatlarini ko'rib chiqish maqsadida Agentlik direktorining buyrug'iga asosan tuziladigan kamida uch nafar a'zodan iborat tarkib.

3. Tanlovning maqsadi ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada rivojlantirish, ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirish uchun zamonaviy

ta'lim va boshqaruv talablariga to'liq javob beradigan, yetarli kasbiy bilim va tajribaga ega, strategik fikrlash va liderlik qobiliyatlari rivojlangan, yuksak axloqiy va kasbiy fazilatlarni o'zida mujassam etgan, ma'lumot darajasi hamda sog'lig'i holatiga ko'ra o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni to'laqonli va mas'uliyat bilan bajarishga layoqatli, boshqaruv salohiyati yuqori bo'lgan rahbar kadrlarni ochiq, shaffof va xolisona tarzda saralab olishdan iborat.

4. Tanlov jarayoni adolatlilik, xolislik, oshkoralik hamda kollegiallik prinsiplariga qat'iy rioya etilgan holda amalga oshiriladi. Bunda barcha nomzodlar uchun teng shart-sharoitlar yaratiladi, tanlov bosqichlari va baholash mezonlari ochiq e'lon qilinadi, qarorlar bir shaxs emas, balki kollegial tartibda qabul qilinadi hamda tanlov natijalari shaffoflikni ta'minlagan holda rasmiylashtiriladi.

5. Tanlovni o'tkazish jarayonida qo'llaniladigan savollar hamda nomzodlarning bilim, malaka, kasbiy tayyorgarlik va boshqaruv kompetensiyalarini baholash mezonlari Agentlik tomonidan ishlab chiqiladi va belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

Zaruriyat va ehtiyojdan kelib chiqqan holda biletdagi savollar soni va tuzilishi Agentlik tomonidan o'zgartirilib borilishi mumkin.

2-bob. Tanlov komissiyasi

6. Tanlovni tashkil etish va o'tkazishni ta'minlash maqsadida Agentlik direktorining buyrug'i bilan kamida besh nafar toq sonli a'zoldan iborat tarkibda tanlov komissiyasi (keyingi o'rinlarda – tanlov komissiyasi) tuziladi.

Bunda, Agentlik direktori o'rinbosari Tanlov komissiyasi raisi hamda Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi xodimi tanlov komissiyasi kotibi hisoblanadi.

7. Tanlov komissiyasi uning a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Tanlov komissiyasining qarori oddiy, ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va tanlov komissiyasi yig'ilishida ishtirok etgan barcha a'zolar tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Berilgan ovozlar soni teng bo'lib qolgan taqdirda, Tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

8. Tanlov komissiyasi bayonnomasi bilan tanlovning saralash bosqichini tashkil etish va o'tkazish uchun Agentlik tizimidagi maktablar xodimlaridan iborat besh nafardan kam bo'lmagan toq miqdorda ishchi guruh tarkibi tasdiqlanadi.

Ishchi guruh saralash bosqichida nomzodlarni malaka talablariga mos deb topilganlari bilan suhbat o'tkazish va Tanlov komissiyasiga taklif kiritadi.

3-bob. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi

9. Ixtisoslashtirilgan maktablarda rahbar kadrlar lavozimlari bo'yicha bo'sh (vakant) o'rin mavjud bo'lganda **yigirma kun** ichida maktabning manzili va murojaat etish uchun telefon raqamlar ko'rsatilgan holda tanlov o'tkazish to'g'risida ommaviy axborot vositalarida yoki Agentlikning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy

tarmoqlardagi sahifalari yoxud ixtisoslashtirilgan maktablarning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon beriladi.

E'londa quyidagilar ko'rsatiladi:

tanlov o'tkazilayotgan lavozim va unga qo'yiladigan malaka talablari;
tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati va ularni qabul qilish muddatlari;
aloqa uchun telefon raqami;
hujjatlarni elektron shaklda topshirish imkonini beruvchi platforma havolasi (hujjatlar topshiriladigan maktab).

10. Birdan ortiq ixtisoslashtirilgan maktablardagi bo'sh turgan lavozimlar uchun tanlovlar birlashtirilgan holda o'tkazilishi bo'yicha tanlov komissiyasi tomonidan reja-grafik tasdiqlanishi mumkin.

Reja-grafikda tanlovlarni o'tkazish va natijalarini e'lon qilish muddatlari belgilanadi.

11. Nomzod tanlovda ishtirok etish uchun arizasini e'londa so'ralgan hujjatlarni ilova qilgan holda Agentlikning elektron platformasi (vacancy.piima.uz) orqali onlayn yuboradi.

Onlayn arizalarni topshirish muddati tanlov haqida e'lon qilingan kundan e'tiboran **o'n besh kunni** tashkil etadi. Belgilangan muddatdan so'ng kelib tushgan arizalar tanlovda ishtirok etish uchun qabul qilinmaydi.

12. Tanlovga hujjatlarni topshirgan nomzodlar soni bir nafardan oshmasa, tanlov o'tkazilmaydi va ixtisoslashtirilgan maktab tomonidan tanlov o'tkazish to'g'risida takroran e'lon beriladi.

13. Tanlov ikki bosqichda o'tkaziladi:

birinchi bosqich – saralash bosqichida nomzodlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar ishchi guruh tomonidan o'rganib chiqiladi, malaka talablariga mos bo'lgan hamda ishchi guruh tomonidan suhbat asosida saralangan 3 nafar nomzod haqidagi ma'lumotlar nizom 1-ilovasiga muvofiq bayonnoma asosida rasmiylashtiriladi hamda tanlov komissiyasiga taqdim qilinadi.

ikkinchi bosqich – asosiy suhbat bosqichi ishchi guruh tomonidan tavsiya 3 nafar nomzod bilan savol-javob tarzida tanlov komissiyasi tomonidan videokonferensaloqa (onlayn) orqali yoki an'anaviy (oflayn) usulda o'tkaziladi.

14. Quyidagi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda nomzod saralash bosqichidan o'tmagan deb hisoblanadi va asosiy suhbat bosqichiga qo'yilmaydi:

nomzod tomonidan taqdim etilgan hujjatlar to'liq bo'lmaganda;

nomzod malaka talablariga muvofiq kelmaganda;

nomzod tomonidan bila turib qalbaki hujjatlar yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, yolg'on va chalg'ituvchi ma'lumotlar taqdim etilganligi aniqlanganda;

sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan nomzod rahbarlik yoki pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan bo'lsa;

muqaddam sud tomonidan qasddan jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan bo'lsa.

Agar ushbu holatlar suhbat bosqichida aniqlangan taqdirda nomzod tanlov komissiyasi tomonidan suhbatdan chetlashtiriladi.

15. Tanlovning suhbat bosqichi nomzodlar tomonidan ariza topshirish muddati yakunlangach **o'n kun** ichida o'tkaziladi.

Suhbat bosqichida qatnashmagan nomzodlar uchun qo'shimcha suhbat o'tkazilmaydi.

16. Suhbat jarayonlari zarur texnik va tashkiliy vositalar bilan to'liq jihozlangan o'quv auditoriyalarida tashkil etiladi. Tanlov jarayonining shaffofligi, xolisligi hamda kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli holatlarning oldini olish maqsadida suhbatlar majburiy tartibda video tasvirga olinadi hamda belgilangan tartibda kamida 3 (uch) oy davomida saqlanadi.

17. Saralash va asosiy suhbat bosqichida foydalaniladigan savollar Agentlik tomonidan oldindan ishlab chiqiladi hamda har bir suhbat bileti uchta savoldan iborat bo'ladi. Ushbu savollar mazmuni nomzodlarning kasbiy bilimlari, boshqaruv salohiyati va rahbarlik kompetensiyalarini aniqlashga qaratiladi. Savollarning boshqalarga oshkor qilinmasligi qat'iy ta'minlanadi.

18. Suhbat bosqichida nomzodga bilet savollariga tayyorlanish uchun besh daqiqa, javob berish uchun uch daqiqa vaqt beriladi.

Nomzodga bilet savollariga javob berib bo'lgach, tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan qo'shimcha savollar berilishi va shu asosida qo'shimcha yana ikki daqiqa ajratilishi mumkin.

19. Savollarga nomzod tomonidan berilgan javoblar mazkur Nizomga 2-ilovaga muvofiq baholash mezonlari asosida tanlov komissiyasi a'zolarining har biri tomonidan mustaqil tarzda qo'yilgan ballar yig'indisi asosida baholanadi.

Nomzod bilet savollariga javob berish jarayonida belgilangan vaqt me'yorida oshib ketgan taqdirda, qo'shimcha har bir daqiqa uchun suhbat yakuniga ko'ra to'plangan umumiy ballning beshdan bir qismi jarima sifatida chegirib tashlanadi.

20. Suhbat bosqichi yakunlari bo'yicha ikki yoki undan ortiq nomzodlarning umumiy ball natijalari teng bo'lib qolgan taqdirda, quyidagi mezonlarga javob beradigan nomzodga ustunlik beriladi:

xalqaro reytinglarda TOP-100 talikdan joy olgan xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olgan yoki ushbu muassasalarda kasbiy malaka oshirgan bo'lsa;

chet tillarini, xususan ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha kamida B2 yoki undan yuqori darajadagi xalqaro yoki milliy sertifikatga ega bo'lsa;

Agentlik tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarda egallab kelgan lavozimidan qat'i nazar kamida uch yil davomida uzluksiz yoki umumiy hisobda faoliyat yuritgan bo'lsa.

Aksincha holatlarda, to'plagan ballari teng kelib qolgan nomzodlar uchun ishchi guruh tomonidan qo'shimcha suhbat o'tkaziladi va natijasi yuzasidan tanlov komissiyasiga ma'lumot kiritadi.

21. Tanlov natijalari haqida nomzodlarga, agar tanlovni o'tkazish bo'yicha reja-grafik ishlab chiqilmagan bo'lsa, uch ish kuni ichida xabar beriladi.

4-bob. Nomzodlarning apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish

22. Tanlov komissiyasi qaroridan norozi bo'lgan nomzodlar tanlov natijalari e'lon qilingan kundan boshlab uch ish kun ichida Apellyatsiya komissiyasiga yozma yoki elektron shaklda apellyatsiya shikoyati berishga haqli.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibi Agentlik direktorining o'rinbosari/maslahatchisi (komissiya raisi), sohaga mas'ul tarkibiy bo'linma rahbari (komissiya raisi o'rinbosari), komissiya kotibi, kasaba uyushmasi vakili hamda a'zolaridan iborat bo'ladi.

23. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga ishchi guruhlar va tanlov komissiyasi tarkibidan a'zo kiritilmaydi.

24. Apellyatsiya komissiyasi uning a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

25. Apellyatsiya komissiyasi nomzodlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish natijalariga ko'ra quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

tanlov natijalarini o'zgarishsiz qoldirish;

tanlov natijalariga o'zgartirish.

Apellyatsiya shikoyatini ko'rishda nomzodning tanlovda olgan natijasini pasaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

26. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqish natijalari haqida besh ish kuni ichida ma'lum qilinadi. Bunda, apellyatsiya shikoyati bilan murojaat qilgan nomzod mazkur shikoyatni ko'rib chiqishda ishtirok etish huquqiga ega.

27. Apellyatsiya komissiyasining tanlov natijalariga o'zgartirish kiritish va nomzod tanlovni muvaffaqiyatli topshirgan deb topish to'g'risidagi qarori asosida u bo'sh (vakant) ish o'rni uchun ishga tavsiya etilgan deb hisoblanadi.

28. Apellyatsiya komissiyasi qarori ustidan nomzod yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilishi mumkin.

5-bob Yakunlovchi qoidalar

29. Tanlov natijasiga ko'ra g'olib deb topilgan nomzod bilan qonunchilik hujjatlariga asosan mehnat shartnomasi tuziladi va buyruq asosida ishga qabul qilinadi.

30. Mazkur nizomda nazarda tutilmagan holatlar amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi
tizimidagi tayanch, hududiy hamda muhandislik
yo'nalishlaridagi ixtisoslashtirilgan maktab va
maktab-internatlar uchun malakali rahbar
kadrlarni tanlash, baholash va ishga qabul qilish
tartibi to'g'risida nizomga
1-ilova

“TASDIQLAYMAN”

Ishchi guruh raisi
(Lavozimi, F.I.Sh.)
(sana, yil)
(imzo)

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan
ta'lim muassasalariga o'tkazilgan rahbar kadrlar tanlovining saralash
bosqichi yakuni bo'yicha o'tkazilgan ishchi guruh yig'ilishi
_____ -son BAYONI**

202____-yil “____” _____

Hudud nomi

Ishchi guruh raisi: _____

Ishchi guruh a'zolari _____, _____, _____, _____,

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan
ta'lim muassasalariga rahbar kadrlarni saralash natijalari to'g'risida**

(_____, _____, _____, _____, _____, _____,
_____,)

ESHITILDI:

Yig'ilishni Ishchi guruh raisi (F.I.Sh.) ochib berdi va kun tartibidagi asosiy masala yuzasidan batafsil to'xtalib o'tdi. U o'z nutqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilayotganini alohida ta'kidladi.

Shuningdek, mazkur Farmonga muvofiq Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) tizimidagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning boshqaruv tizimini mustahkamlash va malakali rahbar kadrlar bilan ta'minlash ustuvor vazifalardan biri etib belgilanganini qayd etdi.

Shu munosabat bilan yig'ilish davomida _____ (hudud nomi)
_____ (ta'lim muassasasi nomi)
_____ (lavozim/lavozimlar nomi) lavozimiga nomzodlarni saralash, ularning kasbiy salohiyati, boshqaruv ko'nikmalari, strategik fikrlash qobiliyati hamda ta'lim sohasidagi tajribasini har tomonlama baholash masalasi atroflicha ko'rib chiqilishi ma'lum qilindi. Ishchi guruh raisi tanlov jarayonining ochiqlik, shaffoflik va adolatlilik tamoyillari asosida tashkil etilishi, har bir nomzodning bilim va malakasi puxta o'rganilishi zarurligini alohida takidladi.

Yig'ilish ishtirokchilari kun tartibidagi masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirib, ixtisoslashtirilgan maktablar rahbarlarini tanlashda yuksak mas'uliyat, zamonaviy boshqaruv tajribasi hamda innovatsion yondashuvlarga ega bo'lgan kadrlarni saralash muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladilar.

Ishchi guruh a'zolari so'zga chiqqanlarni qo'llab-quvvatladilar.

Ishchi guruh tomonidan nomzodlarning hujjatlari o'rganib chiqildi hamda ular bilan tasdiqlangan jadval asosida online/offline suhbat jarayonlari tashkil etilganligi va suhbat natijalariga ko'ra qo'yilgan ballar ketma-ketlikda hisoblab chiqilib, Ishchi guruh yig'ilishi **qaror qiladi:**

1. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi _____ (ta'lim muassasasi nomi)
_____ (lavozim nomi) lavozimiga tanlovning ikkinchi (suhbat) bosqichiga tavsiya etilgan nomzodlar ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ishchi guruh kotibi (F.I.Sh.) 3 kun muddatda tanlovning saralash bosqichidan o'tmagan nomzodlarga belgilangan tartibda tanlov natijalari to'g'risida ma'lumot berilsin.

Qaror bir ovozdan ma'qullandi.

Ishchi guruh a'zolari:

Kotib: _____

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari
agentligi tizimidagi tayanch, hududiy hamda
muhandislik yo'nalishlaridagi
ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-
internatlar uchun malakali rahbar kadrlarni
tanlash, baholash va ishga qabul qilish tartibi
to'g'risida nizomga
2-ilova

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari uchun malakali rahbar kadrlarni ishga
qabul qilish uchun o'tkaziladigan tanlovning suhbat bosqichi bo'yicha
baholash mezonlari**

**Nomzodning 1-savolga bergan javobi quyidagi mezonlar asosida
maksimal 50 ballgacha baholanadi:**

№	Baholash mezoni	Ball
1.	Nomzod tomonidan berilgan javob savol mazmunini to'liq va to'g'ri anglagan holda, savolda ko'tarilgan masalaning mohiyati, asosiy jihatlari va talablariga mos ravishda bayon etilganligi.	10 ball
2.	Nomzod tomonidan berilgan javob amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda tegishli sohaviy me'yoriy hujjatlarning mazmuni va asosiy normalariga tayangan holda, mantiqiy va asoslangan tarzda bayon etilganligi.	10 ball
3.	Nomzod tomonidan mavzu bo'yicha fikrlar mantiqiy ketma-ketlikda, tizimli yondashuv asosida hamda izchil ravishda bayon etilganligi, javobda asos-natija bog'liqligi va umumiy xulosalarning aniq ifodalanganligi.	10 ball
4.	Nomzod tomonidan javobda amaliy misollar, real hayotiy holatlar yoki shaxsiy kasbiy tajribaga asoslangan dalillar keltirilganligi, ushbu misollar orqali bildirilgan fikrlarning asoslangan va ishonarli tarzda yoritilganligi.	10 ball
5.	Nomzod tomonidan nutq madaniyatiga rioya qilinganligi, fikrlarning aniq, ravon va tushunarli tarzda ifoda etilganligi, shuningdek, soha va mavzuga oid terminlardan to'g'ri va o'rinli foydalanilganligi.	10 ball
Jami:		50 ball

Ballarni qo'yish tartibi (tavsif bilan)

9–10 ball:

Mezon to'liq bajarilgan. Nomzodning javobi mukammal, aniq va asosli bo'lib, savol mazmuni to'liq yoritilgan, fikrlar mantiqiy, izchil va tushunarli tarzda

bayon etilgan hamda zarur hollarda normativ-huquqiy va amaliy asoslar bilan mustahkamlangan.

6–8 ball:

Mezon qisman bajarilgan. Nomzodning javobida umumiy mazmun to‘g‘ri aks etgan, biroq ayrim mayda kamchiliklar, to‘liq ochib berilmagan jihatlar yoki izohlarning yetarli darajada asoslanmagan holatlari mavjud. Shunga qaramay, javob savol mazmuniga mos hisoblanadi.

3–5 ball:

Mezon yetarli darajada yoritilmagan. Nomzodning javobida fikrlar umumiy yoki yuzaki tarzda bayon etilgan, savol mazmuni qisman ochib berilgan bo‘lib, mantiqiy izchillik va asoslanganlik yetarli darajada ta’minlanmagan.

1–2 ball:

Mezon deyarli bajarilmagan. Nomzodning javobi noaniq, mantiqsiz yoki asoslanmagan bo‘lib, savol mazmuniga mos kelmaydi hamda bildirgan fikrlar yetarli dalillar bilan tasdiqlanmagan.

0 ball:

Mezon umuman bajarilmagan. Nomzod tomonidan savolga javob berilmagan yoki berilgan javob savol mazmuniga mutlaqo mos kelmaydi hamda baholash mezonlariga javob bermaydi.

Nomzodning 2-savolga bergan javobi quyidagi mezonlar asosida maksimal 30 ballgacha baholanadi:

№	Baholash mezon	Ball
1.	Nomzod tomonidan berilgan javob normativ-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda tegishli sohaviy me‘yoriy hujjatlarning mazmuni va asosiy normalariga tayangan holda asoslangan tarzda bayon etilganligi.	6 ball
2.	Nomzod tomonidan savol mazmuni to‘liq va to‘g‘ri ochib berilganligi, savolda ko‘tarilgan masalaning mohiyati, asosiy yo‘nalishlari va qo‘yilgan talablar to‘g‘ri tushunilgan hamda javob ushbu talablar doirasida bayon etilganligi.	6 ball
3.	Nomzod tomonidan mavzu bo‘yicha fikrlar mantiqiy ketma-ketlikda, tizimli yondashuv asosida hamda izchil tarzda bayon etilganligi, javobda masalaning mohiyati, sabab–oqibat bog‘liqligi va xulosalar aniq hamda tushunarli ifodalanganligi.	6 ball
4.	Nomzod tomonidan javobda amaliy misollar, real hayotiy holatlar yoki shaxsiy kasbiy tajribaga asoslangan dalillar keltirilganligi, ushbu misollar orqali bildirilgan fikrlar mantiqiy, asoslangan va ishonarli tarzda yoritilganligi.	6 ball
5.	Nomzod tomonidan nutq madaniyatiga rioya qilinganligi, fikrlarning aniq, ravon va tushunarli tarzda ifoda etilganligi, shuningdek mavzu va soha bo‘yicha terminlardan to‘g‘ri, o‘rinli hamda me‘yorlarga muvofiq foydalanilganligi.	6 ball
Jami:		30 ball

Ballarni qo‘yish tartibi (tavsif bilan) – 6 ball

5–6 ball:

Mezon to‘liq bajarilgan. Nomzod savol mazmunini to‘liq va to‘g‘ri anglagan, masalaning mohiyatini aniq tushungan hamda javobni savolda belgilangan talablar doirasida mantiqiy va asosli tarzda bayon etgan.

3–4 ball:

Mezon qisman bajarilgan. Nomzod savol mazmunini asosan anglagan, biroq javobda ayrim jihatlar to‘liq ochib berilmagan yoki mayda mantiqiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan.

1–2 ball:

Mezon yetarli darajada bajarilmagan. Nomzod savol mazmunini qisman yoki yuzaki tushungan, javob noaniq, umumiy va asoslanmagan tarzda bayon etilgan.

0 ball:

Mezon umuman bajarilmagan. Nomzod savol mazmunini anglamagan yoki savolga javob bermagan.

**Nomzodning 3-savolga bergan javobi quyidagi mezonlar asosida
maksimal 20 ballgacha baholanadi:**

№	Baholash mezon	Ball
1.	Nomzod tomonidan savol mazmuni to‘g‘ri va to‘liq ochib berilganligi, savolda ko‘tarilgan masalaning mohiyati, asosiy yo‘nalishlari hamda qo‘yilgan talablar aniq tushunilgan va ushbu jihatlar javobda mantiqiy, izchil hamda tushunarli tarzda to‘liq ochib berilganligi.	4 ball
2.	Nomzod tomonidan berilgan javob normativ-huquqiy hujjatlar, amaldagi qonunchilik va belgilangan me‘yoriy talablarning mazmuni va asosiy normalariga tayangan holda, mantiqiy va asoslangan tarzda bayon etilganligi.	4 ball
3.	Nomzod tomonidan mavzu bo‘yicha bildirilgan fikrlar mantiqiy ketma-ketlikda va izchil tarzda bayon etilganligi, javobda masalaning mohiyati, sabab–oqibat bog‘liqligi hamda xulosalar aniq va tushunarli ifodalanganligi.	4 ball
4.	Amaliy misollar yoki kasbiy tajriba asosida fikrlarini asoslab bera olishi	4 ball
5.	Nutq madaniyati va fikrni aniq, ravon ifoda etishi (terminlardan to‘g‘ri foydalanish)	4 ball
Jami:		20 ball

Ballarni qo‘yish tartibi (tavsif bilan) – 4 ball

4 ball:

Mezon to‘liq bajarilgan. Nomzod savol yoki mavzu mazmunini to‘liq va to‘g‘ri anglagan, fikrlarni mantiqiy va izchil tarzda bayon etgan hamda javob baholash mezonlariga to‘liq mos keladi.

3 ball:

Mezon asosan bajarilgan. Nomzod savol mazmunini to‘g‘ri anglagan, biroq javobda ayrim jihatlar yetarli darajada ochib berilmagan yoki mayda mantiqiy kamchiliklar mavjud.

2 ball:

Mezon qisman bajarilgan. Nomzod savol mazmunini qisman anglagan, javob umumiy va yuzaki tarzda bayon etilgan, mantiqiy izchillik yetarli darajada ta‘minlanmagan.

1 ball:

Mezon deyarli bajarilmagan. Nomzod savol mazmunini yetarli darajada anglamagan, javob noaniq, asoslanmagan yoki tartibsiz tarzda bayon etilgan.

0 ball:

Mezon umuman bajarilmagan. Nomzod tomonidan savolga javob berilmagan yoki berilgan javob savol mazmuniga mutlaqo mos kelmaydi.

Nomzodlar tomonidan savollarga to'liq yoki umuman javob berilmagan hollarda Tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan berilgan har bir qo'shimcha savollarga berilgan to'g'ri va to'liq javoblar 5 ballgacha baholanadi.

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi tayanch maktablar
va ularning filiallari, hududiy hamda muhandislik yo'nalishlaridagi
ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar uchun malakali pedagog
kadrlarni tanlash, baholash va tavsiya etish tartibi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) tizimidagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi va Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablar va ularning filiallari, Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab, hududiy va muhandislik yo'nalishlaridagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablar (keyingi o'rinlarda – ixtisoslashtirilgan maktablar) ning pedagog kadrlar lavozimlariga nomzodlarni tanlov asosida saralash, baholash, tavsiya etish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

pedagog kadrlar lavozimlari – ixtisoslashtirilgan maktablarda Agentlik tomonidan tasdiqlangan o'quv rejada belgilangan fanlardan dars beruvchi o'qituvchilar;

tanlov – ixtisoslashtirilgan maktablardagi bo'sh (vakant) bo'lgan pedagog kadrlar lavozimlarini egallash istagini bildirgan shaxslar orasidan munosibini tanlab olish maqsadida uch bosqichda tashkil etiladigan jarayon;

nomzod – ixtisoslashtirilgan maktablardagi bo'sh (vakant) bo'lgan pedagog kadr lavozimini egallash uchun tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxs;

malaka talablari – nomzodlarga nisbatan Agentlik tomonidan belgilanadigan, ma'lumotiga, ish tajribasiga va kasbiy kompetensiyasiga doir talablar;

ishchi guruh – tanlovni bosqichlarini tashkil etish va o'tkazishni ta'minlash maqsadida tanlov komissiyasi tomonidan tuziladigan Agentlik tizimidagi maktablar xodimlaridan iborat tarkib;

apellyatsiya komissiyasi – nomzodlarning tanlov natijalari ustidan qilgan shikoyatlarini ko'rib chiqishni ta'minlash maqsadida Agentlik direktorining buyrug'iga asosan tuziladigan kamida uch nafar a'zodan iborat tarkib.

3. Tanlovning maqsadi ixtisoslashtirilgan maktablarda ta'lim sifatini yanada yuksaltirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni samarali qo'llay oladigan, yuqori darajadagi kasbiy bilim va pedagogik mahoratga ega, ijodiy va ilmiy salohiyati rivojlangan, yuksak axloqiy hamda ma'naviy fazilatlarini o'zida mujassam etgan malakali pedagog kadrlarni ochiq va xolisona tarzda saralab olishdan iborat.

4. Tanlov jarayoni adolatlilik, xolislik, oshkoralik hamda kollegiallik prinsiplariga qat'iy rioya etilgan holda amalga oshiriladi. Bunda barcha nomzodlar uchun teng shart-sharoitlar yaratiladi, tanlov bosqichlari va baholash mezonlari ochiq e'lon qilinadi, qarorlar bir shaxs emas, balki kollegial tartibda qabul qilinadi hamda tanlov natijalari shaffoflikni ta'minlagan holda rasmiylashtiriladi.

2-bob. Tanlovni tashkil etish tartibi

5. Tanlovni tashkil etish va o'tkazishni ta'minlash maqsadida Agentlik direktorining buyrug'i bilan kamida besh nafar toq sonli a'zoldan iborat tarkibda tanlov komissiyasi (keyingi o'rinlarda – tanlov komissiyasi) tuziladi.

Agentlik direktori o'rinbosari tanlov komissiyasi raisi, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi xodimi tanlov komissiyasi kotibi hisoblanadi.

6. Tanlov komissiyasi uning a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Tanlov komissiyasining qarori oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va majlisda ishtirok etgan barcha a'zolar tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Berilgan ovozlar soni teng bo'lib qolgan taqdirda, tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

7. Ishchi guruh tanlovning umumiy natijalari bo'yicha ma'lumotlarni tasdiqlangan holda yakuniy qaror qabul qilish uchun tanlov komissiyasiga taqdim etadi.

8. Ixtisoslashtirilgan maktablarda pedagog kadrlar lavozimlari bo'yicha bo'sh (vakant) o'rin mavjud bo'lganda **yigirma kun** ichida maktabning manzili va murojaat etish uchun telefon raqamlar ko'rsatilgan holda tanlov o'tkazish to'g'risida ommaviy axborot vositalarida yoki Agentlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari yoxud ixtisoslashtirilgan maktablarning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon beriladi.

9. E'londa quyidagilar ko'rsatiladi:

tanlov o'tkazilayotgan lavozim va unga qo'yiladigan malaka talablari;

tanlovda ishtirok etish uchun nomzod tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar (shaxsini tasdiqlovchi hujjat, ma'lumotnoma (obyektivka, CV), diplom(lar), sertifikat(lar), foto va sudlanmaganlik to'g'risida ma'lumotnoma) ro'yxati va ularni qabul qilish muddatlari;

aloqa uchun telefon raqami;

hujjatlarni elektron shaklda topshirish imkonini beruvchi platforma havolasi;

hujjatlarni elektron shaklda topshirish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelgan taqdirda, hujjatlar topshiriladigan ixtisoslashtirilgan maktab manzili.

10. Birdan ortiq ixtisoslashtirilgan maktablardagi bo'sh turgan lavozimlar uchun tanlovlar birlashtirgan holda o'tkazilishi bo'yicha tanlov komissiyasi tomonidan reja-grafik tasdiqlanishi mumkin.

Reja-grafikda tanlovlarni o'tkazish va natijalarini e'lon qilish muddatlari belgilanadi.

11. Nomzod tanlovda ishtirok etish uchun arizasini e'londa so'ralgan hujjatlarni ilova qilgan holda Agentlikning elektron platformasi (vacancy.piima.uz) orqali onlayn yuboradi.

Onlayn arizalarni topshirish muddati tanlov haqida e'lon qilingan kundan e'tiboran **o'n besh kunni** tashkil etadi. Belgilangan muddatdan so'ng kelib tushgan arizalar tanlovda ishtirok etish uchun qabul qilinmaydi.

12. Tanlovga hujjatlarni topshirgan nomzodlar soni bir nafardan oshmasa, tanlov o'tkazilmaydi va Agentlik tomonidan tanlov o'tkazish to'g'risida takroran e'lon beriladi.

13. Ixtisoslashtirilgan maktablarda pedagog lavozimlaridagi bo'sh o'rinlarni yuqori salohiyatli, ilmiy va amaliy bilimga ega pedagog kadrlar bilan to'ldirish uchun tanlovda ishtirok etuvchi nomzodlar quyidagi shaxslar doirasidan shakllantiriladi:

Ixtisoslik va umumta'lim fanlari bo'yicha pedagog lavozimlarini egallash uchun fan doktori (Doctor of Science – DSc) yoki falsafa doktori (Doctor of Philosophy – PhD) ilmiy darajasiga yoki ilmiy unvoniga ega bo'lgan, shuningdek oliy pedagogik ma'lumot (bakalavr) yoki magistr darajasini olgan, kamida ikkinchi toifaga ega, mutaxassislik fani bo'yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatlarga ega malakali mutaxassislar;

tegishli mutaxassislik bo'yicha zarur bilim va malakaga ega, fan bo'yicha sertifikati mavjud, kasbiy tayyorgarligi yetarli hamda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik ish stajiga ega bo'lmagan taqdirda ham, belgilangan malaka talablariga muvofiq ravishda tanlovda ishtirok etishlari mumkin.

3-bob. Tanlovni o'tkazish tartibi

14. Tanlov uch bosqichda o'tkaziladi:

birinchi bosqich – saralash bosqichi;

ikkinchi bosqich – test sinovi bosqichi;

uchinchi bosqich – suhbat bosqichi.

15. Mazkur Nizomning 13-bandida belgilangan tartibda topshirilgan hujjatlar Ishchi guruh tomonidan o'n ish kuni davomida saralanadi.

16. Quyidagi holatlarda nomzod birinchi saralash bosqichidan o'tmagan deb hisoblanadi va tanlovning keyingi bosqichlariga qo'yilmaydi:

nomzod tomonidan taqdim etilgan hujjatlar to'liq bo'lmaganda;

nomzod belgilangan malaka talablariga muvofiq kelmaganda;

nomzod tomonidan bila turib qalbaki hujjatlar yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, yolg'on va chalg'ituvchi ma'lumotlar taqdim etilganligi aniqlanganda;

sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan nomzod pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan bo'lsa;

muqaddam sud tomonidan qasddan jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan bo'lsa.

Agar ushbu holatlar suhbat bosqichida aniqlangan taqdirda nomzod tanlov komissiyasi tomonidan suhbatdan chetlashtiriladi.

17. Tanlovning saralash bosqichidan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar ikkinchi (test) bosqichida ishtirok etadilar.

Test bosqichida nomzodlarning o'quv fani bo'yicha bilim va ko'nikmalari, ularning mantiqiy fikrlash darajasi aniqlanadi.

Test sinovlarini o'tkazish joyi va muddatlari ishchi guruh tomonidan belgilanadi va nomzodlar kamida uch kun oldin ogohlantiradi.

18. Test savollari majmui Agentlik huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan ishlab chiqiladi.

19. Test sinovlari internet jahon axborot tarmog'iga ulangan kompyuterlar bilan ta'minlangan maxsus o'quv auditoriyalarida o'tkaziladi. Test savollari va ularning javoblari Agentlik serverlarida saqlanadi.

20. Test savollari ko'p variantlilik asosida 40 ta savoldan iborat bo'ladi.

21. Nomzodlarga test savollariga javob berish uchun aniq va tabiiy fanlar uchun (jumladan matematika, informatika, fizika, kimyo va biologiya) 90 daqiqa, ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun 60 daqiqa vaqt beriladi.

22. Har bir to'g'ri bajarilgan test savoli 2,5 ball bilan baholanadi. Ikkinchi bosqich uchun maksimal 100 ball beriladi.

23. Quyidagi holatlar nomzodlarning test jarayonidan chetlashtirilishiga asos bo'ladi:

test jarayonida qonunchilik hujjatlaridan, ma'lumot beruvchi va maxsus adabiyotlardan, har qanday turdagi texnika vositalaridan yoki boshqa materiallardan (ma'lumotlardan) foydalanish;

boshqa shaxslar bilan suhbatlashish;

ekranda test javobi aks etgunga qadar test savollari o'tkazilayotgan xonadan ruxsatsiz tashqariga chiqish.

Yuqoridagi holatlarda ushbu nizomning 1-ilovasiga muvofiq dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

24. Test natijalariga ko'ra bir o'rin uchun eng yuqori ball to'plagan uch nafar nomzodga (ballar ketma-ketligida) suhbat bosqichida ishtirok etishlariga ruxsat beriladi.

25. Tanlovning suhbat bosqichi Tanlov komissiyasi tomonidan tashkil etiladi. Zaruratga ko'ra tizim tashkilotlaridan fan o'qituvchilari Tanlov komissiyasi tarkibida suhbat jarayonlariga jalb etilishi mumkin.

Tanlov komissiyasi nomzodlarning kasbiy bilimlari, pedagogik mahorati, muloqot madaniyati, psixologik tayyorgarligi hamda lavozimga mos kompetensiyalarini xolis va har tomonlama baholashni ta'minlashga mas'ul hisoblanadi.

26. O'quv yili davomida (sentabr-may) pedagog lavozimlari bo'yicha bo'sh ish o'rinlari yuzaga kelgan hollarda quyida keltirilgan toifadagi nomzodlar tanlovning birinchi va ikkinchi bosqichlaridan ozod etilgan holda to'g'ridan to'g'ri uchinchi bosqich – suhbat bosqichida ishtirok etish uchun tavsiya etiladi:

xalqaro reytinglarda TOP-100 talikdan joy olgan xorijiy oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishlarini tamomlagan mutaxassislar;

“El-yurt umidi” jamg‘armasi hisobidan xorijiy davlatlarda ta’lim olib, kasbiy bilim va amaliy tajriba orttirgan pedagog mutaxassislar;

xalqaro va respublika miqyosidagi fan olimpiadalarida mutaxassislik fani bo‘yicha g‘olib bo‘lgan pedagog kadrlar;

eng so‘nggi attestatsiya natijalariga ko‘ra ixtisoslik fanlaridan 70 (yetmish) foiz, umumta’lim fanlardan 60 (oltmish) foiz va undan yuqori natija ko‘rsatgan pedagoglar;

zarur hollarda ixtisoslashtirilgan maktab talabnomasi asosida Agentlik tanlov komissiyasi ko‘rsatmasiga ko‘ra tegishli fan yoki mutaxassislik bo‘yicha ehtiyoj yuqori bo‘lgan hududlarda yuqori darajadagi xalqaro va milliy sertifikatlarga ega bo‘lgan pedagog kadrlar.

27. Tanlov jarayonining shaffofligi, xolisligi hamda baholash natijalarining asoslanganligini ta’minlash maqsadida suhbat jarayonlari video tasvirga olinadi va belgilangan tartibda 3 oygacha saqlanadi.

28. Suhbat bosqichida foydalaniladigan savollar biletlari Agentlik tomonidan oldindan ishlab chiqiladi hamda har bir bilet to‘rtta savoldan iborat bo‘ladi. Ushbu savollar nomzodlarning kasbiy bilimlari, pedagogik mahorati, muloqot madaniyati va lavozimga mos kompetensiyalarini aniqlashga qaratiladi. Savollar biletlari boshqalarga oshkor qilinmasligi qat’iy ta’minlangan holda, belgilangan tartibda va faqat vakolatli shaxslar doirasida ishchi guruhlariga yetkaziladi.

29. Nomzodlar suhbat o‘tkaziladigan auditoriyaga kiritilgan vaqtda savollar biletlari orasidan birini tanlab oladi. Nomzodlarga savollarga tayyorlanishi uchun 5 daqiqa, javob berishlari uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.

Nomzodlarga bilet savollariga javob berib bo‘lgach, tanlov komissiyasi a’zolari tomonidan qo‘shimcha savollar berilishi mumkin.

30. Nomzod tomonidan bilet savollariga berilgan har bir javob mazkur nizomning 2-ilovasidagi mezonlar asosida baholanadi.

31. Tanlov komissiyasining har bir a’zosi alohida baholash varaqasini to‘ldiradi, qo‘yilgan ballarni tanlov komissiyasining boshqa a’zolariga ko‘rsatish taqiqlanadi va ballarni o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Suhbat natijalari maksimal 100 ballgacha baholanadi.

32. Suhbat yakunlari bo‘yicha Tanlov komissiyasi a’zolari tomonidan nomzodga qo‘yilgan ballar umumlashtirilib, o‘rtachasi chiqariladi va javoblar varaqasiga qayd qilinadi.

33. Tanlovning ikkinchi (test) bosqichi natijalari uchinchi (suhbat) bosqichda nomzodlarni baholashda inobatga olinmaydi.

Biroq, istisno tariqasida nomzodlarning suhbat bosqichi bo‘yicha yakuniy ballari teng bo‘lib qolgan hollarda, ustunlik tanlovning ikkinchi (test) bosqichi natijalariga ko‘ra yuqoriroq ball to‘plagan nomzodga beriladi.

34. Tanlov yakunlari bo‘yicha bayonnoma rasmiylashtiriladi, tanlov komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi hamda kotibi tomonidan imzolanadi.

Bayonnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

1-ilova – tanlov natijalariga ko‘ra lavozimga tavsiya etilgan nomzodlar ro‘yxati;

2-ilova – tanlov natijalari asosida kelgusida bo‘sh o‘rinlar yuzaga kelgan taqdirda foydalanish uchun zaxiraga olingan nomzodlar ro‘yxati;

3-ilova – tanlov natijalariga ko‘ra lavozimga tavsiaya etilmagan nomzodlar ro‘yxati.

35. Tanlovning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida qatnashmagan nomzodlar uchun qo‘shimcha tanlov o‘tkazilmaydi.

36. Tanlov natijalari haqida nomzodlarga, agar tanlovni o‘tkazish bo‘yicha reja-grafik ishlab chiqilmagan bo‘lsa, besh ish kuni ichida xabar beriladi.

4-bob. Nomzodlarning apellyatsiya shikoyatlarini ko‘rib chiqish

37. Nomzodlar tanlov natijalaridan norozi bo‘lgan taqdirda, natijalar haqida xabar berilgan kundan e‘tiboran uch kunlik muddatda apellyatsiya komissiyasiga shikoyat qilishga haqli.

38. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga Tanlov komissiyasi va ishchi guruhlar tarkibida bo‘lgan a‘zolar kiritilmaydi.

39. Apellyatsiya komissiyasi uning a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

40. Apellyatsiya komissiyasi shikoyatlarni besh ish kuni ichida ko‘rib chiqib, nomzodga ball qo‘shib berish yoki tanlov komissiyasi qarorini o‘zgarishsiz qoldirish haqida qaror qabul qiladi.

41. Apellyatsiya komissiyasiga boshqa nomzodlarning ishlarini ko‘rib chiqish va murojaatchining ishi bilan solishtirishga ruxsat berilmaydi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

42. Tanlov natijasiga ko‘ra g‘olib deb topilgan nomzod bilan qonunchilik hujjatlariga asosan mehnat shartnomasi tuziladi va buyruq asosida ishga qabul qilinadi.

Agar g‘olib deb topilgan nomzod ixtisoslashtirilgan maktab bilan mehnat shartnomasi tuzishni rad etsa, ballar ketma-ketligi bo‘yicha g‘olib nomzoddan keyingi o‘rinda turgan nomzod bilan mehnat shartnomasi tuziladi. Ikkinchi o‘rinni egallagan nomzod ham mehnat shartnomasi tuzishni rad etsa, tanlov qaytadan o‘tkaziladi.

43. Ixtisoslashtirilgan maktabda faoliyat yurituvchi pedagog kadrlar boshqa ixtisoslashtirilgan maktabga amalda ish beruvchisining tavsiyanomasi asosida tanlov komissiyasining xulosasiga muvofiq tanlovsiz ishga o‘tkazilishi mumkin.

44. Mazkur nizomda nazarda tutilmagan holatlar amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari
agentligi tizimidagi tayanch maktablar va
ularning filiallari, hududiy hamda
muhandislik yo'nalishlaridagi
ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-
internatlar uchun malakali pedagog kadrlarni
tanlash, baholash va tavsiya etish tartibi
to'g'risida nizomga
1-ilova

**Nomzodni test jarayonidan chetlashtirish to'g'risida
DALOLATNOMA**
_____ -son

“_____” _____ 20__ yil _____ (joy nomi)

Biz, quyida imzo chekuvchilar:

1. _____ (F.I.Sh., lavozimi)
2. _____ (F.I.Sh., lavozimi)
3. _____ (F.I.Sh., lavozimi)

ushbu dalolatnomani quyidagi mazmunda tuzdik:

“_____” _____ 20__ yil kuni o'tkazilgan test sinovi jarayonida fuqaro
_____ (nomzodning F.I.Sh.)

tomonidan quyidagi qoidabuzarlik sodir etildi:

(qoidabuzarlik mazmuni batafsil yoziladi, masalan: telefon ishlatish, boshqa shaxs yordamidan
foydalanish va h.k.)

Yuqoridagilarga asosan, ushbu nomzod test sinovi jarayonidan chetlashtirildi.

Dalolatnoma mazmuni nomzodga o'qib eshittirildi va tushuntirildi.

Nomzodning izohi (agar mavjud bo'lsa):

Imzolar:

Komissiya a'zolari:

1. _____ / _____ /
2. _____ / _____ /
3. _____ / _____ /
4. Nomzod: _____ / _____ / (Sana) _____

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari
agentligi tizimidagi tayanch maktablar va
ularning filiallari, hududiy hamda
muhandislik yo'nalishlaridagi
ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-
internatlar uchun malakali pedagog kadrlarni
tanlash, baholash va tavsiya etish tartibi
to'g'risida nizomga
2-ilova

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari uchun malakali pedagog kadrlarni
tanlash, baholash va ishga qabul qilishning tanlov asosidagi
BAHOLASH MEZONI**

**Nomzodning 1-savolga bergan javobi quyidagi mezonlar asosida
maksimal 25 ballgacha baholanadi:**

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	Savol mazmunini to'liq va to'g'ri anglaganligi, savolda ko'tarilgan pedagogik yoki fanga oid masalaning mohiyatini ochib bera olishi	5 ball
2.	Javobning normativ-huquqiy hujjatlar, ta'lim sohasiga oid me'yoriy talablar va davlat ta'lim standartlari asosida bayon etilganligi	5 ball
3.	Fan bo'yicha bilim darajasi, metodik yondashuvi va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan xabardorligi (STEM yondashuv, integratsiya, kompetensiyaviy ta'lim)	5 ball
4.	Amaliy misollar, dars jarayonidan real holatlar yoki shaxsiy pedagogik tajriba asosida fikrlarini asoslab bera olishi	5 ball
5.	Nutq madaniyati, fikrni aniq va ravon ifoda etishi, fan va pedagogik terminlardan to'g'ri va o'rinli foydalanishi	5 ball
Jami:		25 ball

Ballarni qo'yish tartibi (tavsif bilan)

22–25 ball:

Nomzod savol mazmunini to'liq va to'g'ri anglagan, javobni normativ-huquqiy va metodik asoslar bilan mustahkamlagan, fan bo'yicha chuqur bilim va zamonaviy yondashuvni namoyon etgan, amaliy misollar keltirgan hamda fikrlarini ravon va tushunarli bayon etgan.

15–21 ball:

Nomzodning javobi umumiy mazmunan to'g'ri, biroq ayrim mezonlar to'liq ochib berilmagan yoki mayda metodik va mantiqiy kamchiliklar mavjud.

8–14 ball:

Javob yuzaki. Savol mazmuni qisman yoritilgan, fan va metodik yondashuv yetarli darajada namoyon etilmagan, amaliy misollar kam yoki yo‘q.

1–7 ball:

Javob noaniq va asoslanmagan. Savol mazmuni deyarli ochib berilmagan, fan bo‘yicha bilim va pedagogik yondashuv yetarli emas.

0 ball:

Savolga javob berilmagan yoki berilgan javob savol mazmuniga mutlaqo mos kelmaydi.

**Nomzodning 2-savolga bergan javobi quyidagi mezonlar asosida
maksimal 25 ballgacha baholanadi:**

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	Savol mazmunini to'g'ri anglaganligi va pedagogik vaziyat yoki metodik muammoning mohiyatini ochib bera olishi	5 ball
2.	Fan bo'yicha darsni rejalashtirish va tashkil etish metodikasini bilishi (maqsad, natija, kompetensiyalar)	5 ball
3.	Zamonaviy ta'lim yondashuvlari va texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasi (STEM, integratsiya, loyiha asosida o'qitish, AKT)	5 ball
4.	O'quvchilar bilimini baholash, differensial va individual yondashuvni qo'llay olish qobiliyati	5 ball
5.	Amaliy misollar yoki shaxsiy pedagogik tajriba asosida fikrlarini asoslab bera olishi, nutq madaniyati va terminlardan to'g'ri foydalanishi	5 ball
Jami:		25 ball

Ballarni qo'yish tartibi (tavsif bilan)

22–25 ball:

Nomzod savol mazmunini to'liq va to'g'ri anglagan, darsni tashkil etish va o'qitish metodikasini chuqur bilishini namoyon etgan, zamonaviy (STEM) yondashuvlarni aniq misollar bilan asoslagan hamda fikrlarini ravon va mantiqiy bayon etgan.

15–21 ball:

Javob umumiy mazmunan to'g'ri. Nomzod metodik bilimga ega, biroq ayrim jihatlar yetarli darajada ochib berilmagan yoki amaliy misollar kam.

8–14 ball:

Javob yuzaki. Savol mazmuni qisman yoritilgan, zamonaviy metodik yondashuvlar yetarli darajada asoslanmagan.

1–7 ball:

Javob noaniq va asoslanmagan. Darsni tashkil etish va o'qitish metodikasi bo'yicha bilim yetarli emas.

0 ball:

Savolga javob berilmagan yoki berilgan javob savol mazmuniga mutlaqo mos kelmaydi.

**Nomzodning 3-savolga bergan javobi quyidagi mezonlar asosida
maksimal 25 ballgacha baholanadi:**

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	Savol mazmunini to'g'ri anglaganligi va pedagogik vaziyatning mohiyatini ochib bera olishi	5 ball
2.	O'quvchilar bilan ishlash bo'yicha pedagogik yondashuvi (individual, differensial, inkluziv yondashuv)	5 ball
3.	Iqtidorli va qiyinchilikka duch kelayotgan o'quvchilar bilan ishlash strategiyalarini bilishi	5 ball
4.	Tarbiyaviy jihatlar, sinf boshqaruvi va o'quvchilar motivatsiyasini oshirish usullarini qo'llay olishi	5 ball
5.	Amaliy misollar yoki shaxsiy pedagogik tajriba asosida fikrlarini asoslab bera olishi hamda nutq madaniyati	5 ball
Jami:		25 ball

Ballarni qo'yish tartibi (tavsif bilan)

22–25 ball:

Nomzod savol mazmunini to'liq va to'g'ri anglagan, darsni tashkil etish va o'qitish metodikasini chuqur bilishini namoyon etgan, zamonaviy (STEM) yondashuvlarni aniq misollar bilan asoslagan hamda fikrlarini ravon va mantiqiy bayon etgan.

15–21 ball:

Javob umumiy mazmunan to'g'ri. Nomzod metodik bilimga ega, biroq ayrim jihatlar yetarli darajada ochib berilmagan yoki amaliy misollar kam.

8–14 ball:

Javob yuzaki. Savol mazmuni qisman yoritilgan, zamonaviy metodik yondashuvlar yetarli darajada asoslanmagan.

1–7 ball:

Javob noaniq va asoslanmagan. Darsni tashkil etish va o'qitish metodikasi bo'yicha bilim yetarli emas.

0 ball:

Savolga javob berilmagan yoki berilgan javob savol mazmuniga mutlaqo mos kelmaydi.

**Nomzodning 4-savolga bergan javobi quyidagi mezonlar asosida
maksimal 25 ballgacha baholanadi:**

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	Savol mazmunini to'g'ri anglaganligi va pedagogik vaziyatning mohiyatini ochib bera olishi	5 ball
2.	O'quvchilar bilan ishlash bo'yicha pedagogik yondashuvi (individual, differensial, inkluziv yondashuv)	5 ball
3.	Iqtidorli va qiyinchilikka duch kelayotgan o'quvchilar bilan ishlash strategiyalarini bilishi	5 ball
4.	Tarbiyaviy jihatlar, sinf boshqaruvi va o'quvchilar motivatsiyasini oshirish usullarini qo'llay olishi	5 ball
5.	Amaliy misollar yoki shaxsiy pedagogik tajriba asosida fikrlarini asoslab bera olishi hamda nutq madaniyati	5 ball
Jami:		25 ball

Ballarni qo'yish tartibi (tavsif bilan)

22–25 ball:

Nomzod savol mazmunini to'liq va to'g'ri anglagan, darsni tashkil etish va o'qitish metodikasini chuqur bilishini namoyon etgan, zamonaviy (STEM) yondashuvlarni aniq misollar bilan asoslagan hamda fikrlarini ravon va mantiqiy bayon etgan.

15–21 ball:

Javob umumiy mazmunan to'g'ri. Nomzod metodik bilimga ega, biroq ayrim jihatlar yetarli darajada ochib berilmagan yoki amaliy misollar kam.

8–14 ball:

Javob yuzaki. Savol mazmuni qisman yoritilgan, zamonaviy metodik yondashuvlar yetarli darajada asoslanmagan.

1–7 ball:

Javob noaniq va asoslanmagan. Darsni tashkil etish va o'qitish metodikasi bo'yicha bilim yetarli emas.

0 ball:

Savolga javob berilmagan yoki berilgan javob savol mazmuniga mutlaqo mos kelmaydi.

Nomzodlar tomonidan savollarga to'liq yoki umuman javob berilmagan hollarda Tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan berilgan har bir qo'shimcha savollarga berilgan to'g'ri va to'liq javoblar 5 ballgacha baholanadi.